

Umida ABDUAZIMOVA

Yozilmagan KITOB



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2008

83.8(50')

A 13



Bu kitob Abdumajidniki. Abdumajid hali uch yoshga ham to'lmagan, yozishni bilmaydi-ku, qanday qilib kitob yozadi, deb so'rarsiz. Barakalla. Sezgirliğingizga, aqlingizga qoyil!

Abdumajid ham Siz kabi juda sezgir, juda bilimdon bola. Ehtimol, tez aylanayotgan yer kurramiz, katta manzillar sari otlangan odamlarimiz, kundan kun yangilanib, yangi o'yin va qurilmalar bilan aqlni peshlayotgan asrimiz shunday bolalarni tarbiyalayotgandir? Xullas, bu kitob Abdumajidniki. Uning aytganlarini Sizga aytdik. Shuning uchun ham kitob nomini «YOZILMAGAN KITOBI» deb qo'ydik.

ГДБ Узбекистон
ИНВ. № 329505

ISBN 978-9943-01-208-0

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2008.



TAVBAGA O'XSHAGAN SO'Z

Men — Abdumajidman. Buvim Abdumajidni urish-manglar, Abdumajid ne'mati va sharafi bepoyon-ning quli, degani. Qolaversa, Abdumajid Alloh o'zi berib o'zi olgan katta o'g'lim Hojiakbar tug'ilgan paytda tug'ilgan, deydilar. Uyimizda Hojiakbar nomi aytilsa, hamma xomush tortib, buvimni ovutishga tushadi. Buvim esa meni silab-siypalab Hojiakbar amakimga aytgan ashulani mening ismimga moslab ayta boshlaydilar:

Abdumajid toy-toy,
Buvalari boy-boy.
Har bozorga borganda
Olib kelar toy-toy.

Toyni minib kattakon
Ot qiladi, toy-toy.
Otni minib hammani
Mot qiladi toy-toy...

— Tavba qildim, buvi, tavba... Kecha lo'li ko'chamizdan ot-arava minib o'tib ketdi. O'shanda shishalarni hushtakka almashtirib, menda ham ot bo'lsaydi, degandim.

Buvim kulib yubordilar.

— Tavba qildim, deysanmi? Tavba-ya?!.. Sen hali uch yashar ham bo'lmading-u, qanday gunoh qilib-sanki, tavba qilasan?

— O'zingiz ba'zida tavba qildim, deysiz-ku. Tavba yaxshi so'zmi?

— Ba'zida degin?

Kula-kula buvimning ko'zlari yoshlanib ketadi.

Ko'zimda yosh, ko'ngil g'ash, hijron ziyoni tanda,
Qaritar meni yakkash ko'ngil isyoni, tavba.
Avval gunoh qilganlar, keyin Alloh deganlar,
Vasvasadan topmay ta'm, ochilgin choh deganlar.

Parvozda qanot sinsa, qo‘shiq avjida tinsa,
Chamandami, cho‘ldami, daryo mavjida tinsa.
Hayot poyoni — tavba,
Gunoh bayoni — tavba...

—Xullas, tavba qiladigan, bir ish qilib, endi bu yomon ishni boshqa qilmayman, deb tazarru qiladigan bo‘lmagin, bolajon. Nimaiki qilsang yaxshilikka bo‘lsin.

Men esa buvimdan yana yangi so‘z eshitib oldim. Bu — tazarru. Tazarru nima, deb so‘rasammikan?.. Yo‘q, undan boshqa so‘raydigan gaplarim ko‘p. Qolaversa, tazarru tavba so‘zidan keyin aytili. Demak, tavbaga o‘xshagan so‘z bo‘lsa kerak.


QATTIQQO‘L KIM?

*B*uvim bilan gaplashib yotib, uxlab qolibman. Buvimning o‘zlari ham yonimda yotgan ekanlar. Uyg‘onib derazaga qarasam, yomg‘ir yog‘ayapti. Yana yaqinroq borib qarasam, yomg‘ir velosipedimni minib olyapti.

—Buvi, turing, turing, velosipedimni yomg‘ir minib olyapti.

Buvim darrov tepa uydan buvamni chaqirdilar.

— Abdumajidning velosipedini yomg‘ir minib olayotganmish. Yomg‘irdan uni olib qo‘ying, — dedilar-da, yana negadir ko‘zlari yoshlandi:





Bulutning bag‘rin tilib,
Qo‘yvor, deb shoshirasan.
Yerda-chi, sho‘xlik qilib,
Ariqni toshirasan.

Loyqalatding shaloblab,
Tog‘ning tiniq bulog‘in.
Buvimga aytay, boplab
Cho‘zib qo‘ysin qulog‘ing...

— Bu gapni Hojiakbar amaking sendayligida yomg‘irga aytgandi. Men uni she‘r qilib qo‘ygandim. Amakingning buvisi, mening onam qattiqqo‘l edilar. Hozir ham hoji buvingning oldida tartib saqlab o‘tirasan-ku sen ham. Men esa qattiqqo‘l bo‘lolmadim...

Shu kuni, shu paytning o'zida hoji buvimning oldida bo'lib qolgim keldi. Negaligini o'zingiz ham bilgandirsiz? Ha-da, ularning qo'llarini ushlab ko'rish uchun-da.

BUVIMNING HAMMA GAPI TO'G'RI

Oyim narigi uydan ukamni olib chiqdilar.

—Ukangning oti nima?— dedilar menga.

—Abdulbosit.

—Oyijon, Abdumajid endi ukasining otini to'g'ri aytayapti.


—Yo'q, Abdumo'min. Buvim Abdumo'min deganlar.

Buvim esa ukamni qo'llariga olib, rizq ato etuvchining, ruh bag'ishlovchining quli bo'lsang o'rgilay, dedilar-da, menga qarab gapirdilar:

—Sen sho'x, to'polonchi bolasan. Ukang mo'mintoy bo'lsin, degandim-da. Qarasam, shunday ham mo'min-ma'qulgina ekan. Uning otini ham sening otingni ham Mahbuba hoji buving qo'yib berganlar.

—Hoji buvim zo'rlarda. Katta bo'lsam hoji buvi bo'laman.

—Mayli, hoji buving kabi sakson yoshga kirgin. Ammo sen o'g'il bolasan. O'g'il bolalar hoji bobo bo'lishadi.





Buvim yig'layotgan
ukamni ovutdilar:

Oblo huv-ya,
Ariqlarda suv-ya.

Abdulbositning yuzini
Sovuq suvga yuv-ya...

—Yo'q-yo'q, issiq suv-
ga deng, buvi.

—Oblo huv-ya,
Ariqlarda suv-ya,
Abdubositning yuzini
Issiq suvga yuv-ya.

—Yo'q-yo'q, buvi, is-
siq suvdan yuzi ku-

yadi. Muzdek suvga yuv, qiling. Muzdek suvni ichib
oladi.

—Ichib olsa tomog'i og'riydi. Sen ham kechasi
yo'talib chiqding.

—Oyisi, Abdumajidga dori ichirib qo'ying.

—Yo'q-yo'q, dori ichmayman. Dori achchiq.

Oyimning oyog'iga yopishib olib yig'lay boshlayman.

—Dori ichmasang, ukol qilaman. Qani shpris?..

—Xo'p-xo'p, —deyman shoshib, —ukol qilmang,
dori ichaman. Oh, umma bilan.

Oyim dorini og'zimga soladilar.

—Oh, ummasi tamom bo'libdi.


—Nega tamom bo'ladi, —deb eshikdan kirib kela-
dilar amakim.

— Nima olib keldim, Abdumajidga?
 — Sprayd..
 — Yana nima?
 — Banan.
 — Yana nima?
 — Morojniy.
 — Topolmading, shtapad olib keldim.
 — Nega shtapad deysan, Abduhamid? To'g'ri gapir bolaga.
 — Asolim, amaking senga shokolad olib kelibdi, — deydilar buvim.
 — Shokolad bering, shokolad, — deb sakray boshlayman-u, birdan buvimning gapi esimga tushadi.
 — Men asalimga shokola-a-d.
 Amakim menga ko'zini qisadi:
 — Buvingning hamma gapi to'g'ri. Qani asalingdan ber-chi.
 Men amakimni achom-achom qilaman. Yelkalariga minib olaman-u, boshlariga chiqib ketaman. Amakim esa qulog'imni qo'yib yubor, deb meni chirpirak qilib yerga tushirib qo'yadilar.

MEN JO'XORI YEMAYMAN

*A*makim buvim o'rgatgan qo'shiqni aytib, deydilar: — Abdumajid qayoqda?

Men ularga qo'shib aytib ketaman:



— Qizlar bilan bog'da.
— Bog'da nima qilyapti?
— Olma, uzum yeyapti.
Paqirini to'ldirib
Olmasini tersin.
Bolalarga bo'lishib,
Uzumidan bersin.

— Yo'q-yo'q, — deyman she'rni birga aytib bo'lib, boshimni sarak-sarak qilib. — Uzum menga mumkinmas. Oyim urishadilar.

— To'g'ri, xom uzum mumkinmas. Qorningni og'ritadi. Sen esa so'ridan pishmagan uzumni uzib olib yeyishni qo'ymaysan.


— Endi yemayman. Yesam Mastura xolam og'zimga shlanga tiqib, keyin qorningga suv solib, ichimni yuvadi...

— Bir marta shunday bo'lib ta'ziringni yegansanda, — deydilar oyim.

Biz oyimning gapini eshitmay yana ashulani takrorlaymiz:

Paqirini to'ldirib,
Olmasini tersin.
Bolalarga bo'lishib,
Uzumidan bersin.

— Bog'da bolalar yo'q-ku. Hammasi qizlar-ku, Abdumajid?



— Bolalar velosipedimni ko'chada minvotti.

— Velosipedingni hamma minaverarkan-da? Men Abdumajidning velosipediman, menga tegmanglar, demas ekanda velosipeding?

— Chunki u qizg'anchiq emas.

— Qizg'anchiqlar qanaqa bo'ladi?

— Qizg'anchiqlar oh, umma olib kelmaydi.

— Senga qanaqa oh, umma olib kelay?

— Olmali, anorli, qurutli, pistali...

— Qurutni ko'p yema, sho'r. Pistani bolalar chaqaversa appenditsit bo'lib qoladi.

— Appenditsit nima?

— Appenditsitni ko'rsataymi?

— Ha.

Amakim ko'ylaklarini ko'tarib, vavasi bor qorinlarini ko'rsatadilar.

— Men ko'p jo'xori yeb, pista chaqqanimdan shunaqa bo'lib qolganman.

Men shunaqa bo'lmayman. Men pista chaqmayman. Jo'xori yemayman...

POYMA-POY TUFLI

— *H*ur, seni hoji buvingnikiga olib boraman, — dey-dilar buvim ukamni uxlatib.

— Elmira, bolaga o'zingiz qarang, biz ketyapmiz.





— Abdumajidni kiyintirib beray, oyijon.

Oyim oldimga kelib oyog'imdagi tuflini yecha boshlaydilar.

— Yechmang, shunda boraman.

— Yana poyma-poy kiydingmi? Buning ustiga bit-tasiga krossovka, bittasiga...

— Bosanojka, — deyman men. Bosanojkani buvim, basanochka, deydilar.

— Oyijonimning o'z lug'atlari bor, — deydi Elmira oyim.

— Lug'at nima?

— So'zlar turadigan sandiq. O'sha sandiqda buvi-joning bosanojkani basanochka, podvalni podbil, deb qulflab qo'yganlar. Faqat o'zlari uni ochadilar. Demak, faqat o'zlari so'zlarini qanday o'ylasalar, shundayligicha ishlatadilar.

Buvim oyimning so'zlarini eshitmay, mening oldimga kelib cho'kkalaydilar.

— Nega doim ikki xil oyoq kiyim kiyib olasan, Abdumajid?


— Bunisi Samiranikidaqa, bunisi Mahbubaniki-daqa.

— Bo'lmagan gap. Ular qiz bola. Qiz bolalarning oyoq kiyimi boshqacha bo'ladi.

— O'g'il bolalarniki tez yirtilib qoladi. Mening ham tufligim eskirib qoldi.

Buvimning ko'zlari yana yoshlanadi.

— Hojiakbarimga ham tufli chidamasdi...



Chidamas tuflim bir-biridan
Tikilsa kerak eski teridan.
Bunisi ham tez
Kir bo'lib qoldi,
Eskisi bilan bir bo'lib qoldi.

— Buvi, shu she'ni menga o'rgatib qo'ying.

— Senga gugurt o'ynama, katta ko'chaga yugurib chiqma, degan she'rlarni o'rgatib qo'yaman. Faqat o'rganganlaringga o'zing amal qilishing kerak.

— Qanaqa amal? O'zi tufligimni bir amallab kiyib olganiydim, oyim yechib tashladilaru...

Buvim esa:

— Tavba, bu bolangiz buncha gapdon? Shoir bo'ladimi, deyman,— deydilar.

— Buvisi shoir bo'lgandan keyin, albatta shoir bo'ladi-da.

Amakim esa buvamning gaplarini qo'shib qo'yadi:


— Olmaning tagiga olma tushadi, anorning tagiga anor.

— Qani anor, anor yeyma-a-n.

— Anor ham jo'xoriga o'xshagan-ku. Sen esa jo'xori yemayman deganding.

— Men anorning suvini siqib ichaman.

— Bor, podbildan anor olib chiq. Hoji buvingnikiga ham anor olib boramiz.




UYIMIZ KETIB QOLYAPTI

Buvim anorlarni sochuqqa o'rab, velosipedimning aravachasiga qo'ydilar. Biz hoji buvimnikiga keta boshladik. Ko'chadagi o'rtoqlarim yugurib kelib, velosipedni itarishdi. Menga mazza. Oyog'imni ko'tarib olib, uchib ketaveraman.

— Abror, to'xta, — dedim buvimning orqada qolib ketayotganlarini ko'rib. Abror esa meni orqaga uchirib borib, buvimning oldiga yetkazib qo'ydi. Buvim Nazmiddinning oyisi bilan gaplashib qolgan edilar, bolalar meni yana ulardan oldinga o'tkazib ketishdi. Hoji buvimning uyiga shu to'ppa-to'g'ri yo'ldan boriladi. Keyin bitta ko'chaga kirilsa, biznikidaqa tomi bor uy chiqadi. O'sha uyda Shavkat tog'am, Gulmira kennoyim, Gulchehra, Gulnora, Behzodlar turishadi. Oyim ularni aka, opa, deb aytgin, bo'lmasa dadangga o'xshab, chollarni ham oti bilan ataydigan bo'lib qolasan, deydilar. Dadam esa, Sobirni aytayapsizmi? Oldilarida Sobir aka deymanu, deydilar. Faqat ularni emas, Mahkam akani ham oti bilan aytib gapirasan, desalar, Mahkam o'rischa o'qigan, xafa bo'lmaydi, deb kuldiradilar.

Ana, Mahkam aka ham chiqib turgan ekanlar. Bizning yo'limizni to'sdilar va meni darrov ko'tarib oldilar. Keyin:



—Tufligingni yech, ichiga qum kirib qolibdi-ku, qani qo'llaringni ko'rsat, nega kir, tuproq o'ynadingmi?,—deb ro'molchalari bilan ishqalab artib qo'yidilar.

—Manzura qani?

—Manzura domga ko'chib ketgan.

—O'yinchoqlari qani?

—O'yinchoqlarini ham olib ketgan.

—Yumshoq quyon qani?

—Yumshoq quyon yomg'irda ho'l bo'lib qolibdi.

—Quritib qo'ying.

—Xo'p, hali kelgin, senga beraman.

—Nimalarni gapiryapti, bu katta bola?—deb buvim yetib keldilar.

—O'zimiz gaplashyapmiz-da. Abdumajid bilan o'z gapimiz bor,—deb Mahkam amaki yuzlarimdan silab yana velosipedimga o'tkazib qo'yidilar.

Buvim esa o'rtog'im qachon keladi, deb yana ular bilan gaplashib qoldilar.

—Qizirikida turarmish.

—Nodira yangi uyga o'rganib olguncha o'sha yerda turganlari ham yaxshi. Yolg'iz o'zi kichkina Manzura bilan qiynaladi-da.

—Qiynalsin. O'zi so'zga kirmadi. Eri bilan ajrashmaganida etaj uylarda yurmasdi.

Buvim esa, bu kunlar ham o'tib ketar, degancha orqamdan ergashadilar. Men ularga qarayman deb, juda ko'p uylardan o'tib ketganimni bilib qoldim. Ab-



rorga, to'xtat velosipedni, deb oyog'imni tormozga qo'ydim. Abror qo'yib yubor, deb qattiq itarsa ham, veligim joyidan jilmadi. Unga Nazmiddin, Abdunabilar ham qo'shilib itarib ko'rishdi. Baribir yurmadi. Buvim nima bo'ldi, nega nabiramning boshida yig'ilib oldinglar, deb yetib kelganlarida uzoqda qolib ketgan uyimizni sog'inib ketdim va yig'lab yubordim.

—Buvi, uyimiz ketib qolyapti-i-i...

GILAM NEGA IKKI XIL

Buvim bolalarni ketkazib yuborib, meni ovuta boshladilar.


—Toychog'im, nega uyimiz ketib qolar ekan? Uyimiz sening bobongga uning bobosidan qolgan. Bobosiga esa yana uning katta bobosidan. Uyimiz hech qayoqqa ketib qolmaydi. Agar vaqtida ovqatlanib, vaqtida uxlamasak, shirin so'zlar bilan bir-birimizni avaylab-asramasak o'zimiz ketib qolamiz, Abdujabbor dodangdek...

Buvim uh tortdilar:

—Abdujabbor dodang esingdami?

—Ha, meni mashagim qani, deb sog'inib kelardilar.

—O'sha dodang ham bizning uyimizda tug'ilganlar. Sen kabi velosipedlar minmasalar-da, ot, eshak minib yurganlar. Bu ko'chada faqat bizning qizil tunuka tomli uyimiz bo'lgan ekan. Qolgan uylar-



ning tomi loysuvoq. O'shanda bu uyda boylar yashaydi, deb qizillar bostirib kelibdi. Ularning kelishini oldindan bilgan Abdujabbor dodang yangi etigini kiymasdan yelkasiga ilib yurarkan. Uning bu ishidan sergaklangan katta bobong kechqurun bog'ning etagiga, katta buvingning taqinchoqlariga qo'shib, qo'y yog'i va qo'y go'shtlarni ham yerga ko'mib qo'yibdi. Qizillar tongda kelib uydagi ko'rpa-yostiqlaru yangi kiyim-kechaklarni olib, sigir-buzoqlarni haydab ketishibdi. O'sha gilam hozir ayvonda turadi. O'zing nega bu gilam ikki xil deb so'raganding. Endi bilib oldingmi, nega ikki xilligini?

— Ha, ozgina joyi ochiqda qolgani uchun ikki xil bo'lib qolgan-da.


— O'zimning bilag'on, topag'on bolamdan aylanay.

Buvim menga engashib yuzlarimdan o'pib oldilar. Meni o'pishsa qo'llarimni yuzimga qo'yib boshimni egib olaman. O'g'il bolaman-da. Nega hadeb mushukka o'xshab meni yalashadi?

— O'pmang, buvi, o'pmang. Gilamning ikki xilligini menga yerga ko'milgan gilam, deb dadam aytib berganlar. Buvim, ha, shundaymi, deb yana jim ketaverdilar. Men esa ularni gapirtirgim kelaveradi.

— Buvi, qizillar kim?

— Qizillar — qizil hokimiyat. Mahallamiz nomi ham Qizil dehqon bo'lgandi. Bayroqni ham hamma-yoqda qip-qizil rangda hilpiratib qo'yishardi. Bo'ynimizga qizil latta taqib maktabga borardik.



Qo'limizga qizil lenta bog'lab, navbatchilik qilardik. Qizil hokimiyatning qizil taqqanlarga yo'li ochiq edi. Hamma bir xil yashasin, boy bo'lsa — boy bo'lsin, kambag'al bo'lsa — kambag'al, deyishardi-yu, sal boy bo'lsang, qayerdan olding bu boylikni, deb ta'qib qilishardi. Butun hokimiyat kambag'al-yo'qsillarga deb, hammani tenglashtirishga harakat qilishardi. Shuning uchun ham odamlar kambag'allashib, oxir-oqibat kun ko'rolmay qoldi. To'leing baland ekan, bolam, ishlaganga yarasha tishlaydigan zamonga yetib keldik.

RAIS O'ZI KIM?

*A*vaz samokatida uchib kelib, menga urildi. Men yiqilib tushdim. Yana kiyimlarim chang, qo'lim kir bo'ldi. Buvim:

— Bor, bobongga o'xshab hammayoqqa burningni tiqaverma, — dedilar-u, birdan lablarini tishlab qoldilar. Nega bolaning oldida bolaga bunday dedi, deyaptalarda. Men sezgir va bilimdon bolamasmanmi, darrov buvimdan so'radim.

— Buvi, Avazning bobosi kim?

— Avazning bobosi rais bo'lgan.

— Qizillardanmi?

— Uf-f, qanaqa gapdon bolasan, o'zi? Ha, qizillardan!

— O‘shanda Avazning bobosi ham bizning uyga bostirib kirganmidi?

Buvim kulib yubordilar.

— Sen o‘zing, xudoning qudrati bilan alloma bo‘lib tug‘ilgan bolamisan, bilmadim. Kel, aytsam, ayta qolay. O‘shanda rais ham bor bo‘lgan ekan. Buvingning yangi ko‘ylaklarini ozgina vaqt o‘tib, raisning xotini to‘ylarga kiyib chiqibdi...

Men kattalar ham birovning narsasini o‘ziniki qilib olarkan-da, deb katta bo‘lgim kelmay qoldi. Chunki menga birovning narsasini beruxsat olmagin. O‘zgalar senga yeyishga narsa berishsa ham ochko‘zlik qilib, darrov yemagin, deb o‘rgatishardi-da.

BOLA MUSHUK — OLA MUSHUK


Oldimizdan ola mushuk chiqib qoldi. Buvim darrov tanidilar.

— Xudoga shukr, tirik ekan, qulog‘ining oldidagi chandig‘idan tanidim...

Men ham suyunib ketdim.

— Buvijon, men qozonning qopqog‘ini ustiga tushirib yuborgan mushuk-a, shu?

— Ha, o‘sha mushuk. O‘shanda jonivor o‘lib qolgandek edi. Ko‘mib tashlamoqchi ham bo‘luvdim, lekin ertalabgacha tursin-chi, deb hovlida qoldirdim.



Ertalab turib qaragam yo‘q bo‘lib qolibdi. Kuchuklar yeb ketdimi, deb rosa xafa bo‘ldim. Xudoga shukr, o‘lmagan ekan!

Buvim jonivorlarga ozor yetkazish juda yomon ish ekanligini aytib ketdilar.

Buvim bola paytida qo‘shni bola bir mushukning ustidan kerosin sepib yoqib yuboribdi. Mushuk esa chopib o‘sha bolalarning tomiga chiqib ketibdi. Va hamma uylari yonib ketibdi...

Men mushuklarni xafa qilmayman. Ularni silab, o‘zimning ovqatimdan beraman. Amakim olib kelgan bananni ham, kolbasayu nokni ham yeb tashlayveradi mushugimiz.

— Olma yeydigan mushukni endi ko‘rishim,—deydilar buvim.

— Abdumajid, sen nima yesang, o‘shandan berib o‘z menyuingga o‘rgatib qo‘ydingmi?

— Menyu nima?

— Menyumi? Menyu — tayyorlangan ovqatlar ro‘yxati. Oshxonalarda oldingga avval menyuni olib kelib qo‘yishadi. Unga qarab o‘zingga yoqqan ovqatning narxini bilib olib, qorningni to‘yg‘azasan.

— Kuchugimizning nega qorni to‘ymaydi? Kuchugimiz isqirt ekan. Ukamning axlatini ham yeb qo‘ydi...

— Shuning uchun kuchuklardan farishtalar qochadi-da. O‘ylab qaragam, it, mushuklar odamlarga o‘xshab bir tuqqanda bitta yoki ikkita emas, oltiyettitalab tug‘adi. Lekin nega dunyoni it-mushuk

bosib ketmagan? Chunki ular harom-da...Necha marta boqmaylik dedim, shu kuchukni. Buvang qo'ymaydi, qo'ylarni qo'riqlab turadi deb. Qo'ylar jannatdan chiqqan-da.

JANNATDAN CHIQQAN TAYOQ

— *B*uvi, buvijon, jannatdan chiqqan tayoq, yugurtirur yalangoyoq-ni aytib bering.

— Arofat tog'ida Ismoilni qurbonliq qilamiz, deb turishganida shoxdor qora qo'chqor katta tayoq bilan jannatdan yugurib chiqqan ekan. Odamni emas, meni qurbon qilinglar, degan ekan. Shundan beri ho'kizlarni katta govron bilan qo'rqitib, yer haydashar ekan. Cho'ponlar qo'lida ham tayoq bo'larkan.

— Nimalarni gapirayapsiz?


— Qaynotamdan eshitganlarimni nabiramga gapirib beryapman-da, Nasibaoy, — deydilar buvim Nafisa-ning oyisi bilan ko'rishib.

— Nafisa qani? — deyman men.

— Nafisani men ham qidirib yuribman. Maktabga chiqishi kerak. Bir bahona topib maktabga bormasada u.

— Qo'lingizdagi tayoq bilan uni urasizmi?

— Ha, qo'limga tushsa uraman. Kecha ham darsini chala qilib, maktabdan qochib kelibdi.





Buvim esa, menga:

— O‘zingdan katta qizni opa degin, — dedilar-da, u xotinga, — qizingizga yaxshi gapiring, Nafisa aqlli qiz. Tilab-tilab olgan farzandingiz axir. Eng yaqin odamingizni urasizmi, menga bering tayoqni, — deb sindirib tashladilar.

— Bolangiz bilan dugona bo‘lib gaplashing...

Shunda daraxt panasida berkinib turgan Nafisa salom berib bizning oldimizga keldi.

MUZQAYMOQMI, ISSIQ QAYMOQ?

Kecha uyimiz oldidagi so'rida men bilan gaplashib o'tirgan Nafisa jinsi shimining cho'ntagidan pul topib oldi.

— Anchadan beri bu shimni kiymayotgandim. Tog'am hayitlikka bergan pul shu yerda haliyam turgan ekan, — deb suyunib ketdi. Keyin menga, «yur, Abdumajid, senga marojniy olib beraman», dedi. Men oyim uning gapini eshitib qolmasin deb, qo'rqib uyga qaradim. Chunki oyijonim menga hech qachon morojniy yeyishga ruxsat bermaydilar. To'g'ri, bir marta mikrovolnoviy pechga qo'yib o'zlari yedirib qo'ygandilar. Lekin morojniyni muzdekligida yesa morojniy bo'ladi-da. Isitilgan morojniy muzqaymoq emas, issiq qaymoq bo'ladi. Buvim esa judayam yaxshilar. Hatto bu borada ham mening yonimni olib turadilar. «Tomog'i og'risa ham, ozgina yeya qolsin. Achchiqni achchiq, sovuqni sovuq kesadi, kelinposhsha», deb.


Oyim baribir o'z aytganlarini qiladilar:

— Uni yema, buni kiyma...

— Buva, oyim urdi, — deyman ularning tizzasida mustahkam o'tirib olganimda.

— Nega uradi? Qani o'sha oying? Men ham atatay qilaman.

— Nega bolaga onasini qarshi qo'yayapsiz? To'g'ri aytadi, oyisi. Kattalar bir ish qilsa, bilib qiladi!



— Buvim darrov oyimning yonini olib ketadilar. Xullas, buvimga tushuna olmayman. Buvam esa baribir doim men taraf.

NAFISA NEGA MAKTABDAN QOCHDI

Nafisa bilan Sobirlarning derzasiga qarab baqirdik:

— Och, morojniy olib ber...

Oyisi derzani ochib pulni oldi va:

— Yana ellik so'm ber, o'shanda morojniy beraman, — dedi.

Nafisa menga qarab dedi:

— Boshqa pulim yo'q. Saqich olib beraymi? Chaynab yutib yubormaysanmi?

— Yo'q.

Bitta saqich sotib oldik. Nafisa uni ochib menga berdi va «qolgan pulimga qurut olib beraman», dedi.

Men saqichni chaynab, undan:

— Nega maktabga bormading, — deb so'radim.

— Qaytib keldim. Ustoz meni darsdan chiqarib yubordi.

— Nega?

— Men bilan o'qiydigan Adham og'zidagi saqichni menga puflab yubordi. Jahlim chiqib saqichini o'ziga dumaloqlab, uni mana bu barmog'im bilan chertib

yuborgandim, Adhamning yelkasiga borib tegdi. Keyin shu tezlikda ustozning naq burni uchiga borib qadaldi. Ustoz qip-qizarib ketdi. Hamma kulib yuborganidan batar jahli chiqib, bu ishni kim qildi, deb baqirdi.

— Men, — dedim. Ammo uni Adham otgandi, demoqchiydim, ustoz gapirtirgani qo'ymadi va meni eshikka chiqarib yubordi.

— Endi maktabga bormaysanmi?

— Yo'q... Yana bilimadim...



QURUTNI QURITMANG

Nafisa oldimga kelib menga cho'ntagidan qurut olib berdi. Oyisi buni ko'rib qolib:

- Qurutni qayerdan olding? — deb achchiqlandi.
- Attorchi amakidan.
- Qaysi pulga?
- O'zimda bor edi...

— Shunaqa, qayerdan pul oladi, puliga nima sotib oladi, men bilmayman. Qani oldimga tush-chi. Bugun ham maktabga bormadingmi?..

Nafisani oyisi yetaklab uyiga olib kirib ketdi.

Mening Nafisaga juda rahmim keldi. Ustoziga ham Adhamning aybi bilan yomon ko'rinib yuribdi. Oyisiga ham tog'asi hayitlikka bergan pul ekanligini darrov ayta olmay qiynalyapti. Men ham ba'zida shunaqa ahvolga tushib qolaman. Kattalar esa bizlarni tushunishmay xafa bo'lib qolishadi.

— Buvi, ayting, oyisi urishmasin.


— Urishmang dedim-ku, asalim, urishmaydi. Qani qurutni menga ber-chi. Voy, bu juda qattiq ekan-ku! Ichiga ohak qo'shilganmi, nima balo?..

Buvim shunday deb uni otib yubordilar.

— Senga attorchilardan olingan narsani yemagin, degandim-ku.

— Qurut yeyman, qurut...

— Qurutni bilasanmi, qanday qilgan o'sha lo'li attorchi? Qo'ltig'ining tagiga suzma qo'yib aylantirib, aylantirib dumaloqlagan. Kim biladi, ichida qil bormi, sochmi, toshmi?



Agar qurut yesang o'zim senga quritilmaganidan olib kelib beraman.

Meni juda qurut yegim kelib turgandi. Quritilmagan qurut ham bo'larkanmi, deb turib qoldim.

— Abdumajid, chetga qoch, mashina kelayapti!

MUZAFFARNING O'G'LI

Mashina o'tib ketgach, paqir ko'targan qatig'chi bola paydo bo'lib qoldi. U uyma-uy yurib o'z qatig'ini sotardi. Buvim hey bola, qatig'ing necha pul, qani, men-ga ko'rsat-chi, dedilar. Bola chopib oldilariga keldi.

— Mana buning qatig'i yaxshi ekan. Har kuni ke-lasanmi?

— Ha.

— Nega men ko'rmagan ekanman? Hov anovi bizning uyga ham kirib turgin. Bilasanmi, uyimizni?

— Ha, dadam ko'rsatganlar o'rtog'imning uyi deb.

— Dadangning oti nima?

— Muzaffar.

— Qaysi Muzaffar? O'xshab turibsan, Gul-chehraning nabirasimasmisan, mabodo?

— Ha, buvimning ismi Gulchehra.

Buvim «otang yaxshimi», dedilar-u, «mayli, qatig'ingni bizning uyga tashlab o't», deb tez-tez yurib keta boshladilar. Nega buvijonim darrov o'zgarib qolganlarini siz bilmaysiz. Men esa juda



yaxshi bilaman. Bu bola Hojiakbar amakimning o'rtog'i Muzaffar akaning o'g'li. Yana Hojiakbar amakim oramizda paydo bo'lib qoldilar-a? Shunaqa. Men sizga ularning Muzaffar aka bilan nima ishlar qilishganini aytib beraman.

KATTA ARIQDAGI UY

Katta ariqda ham uy bo'larkanmi, deya-yotgandirsiz. Katta ariqda uy emas, suv bo'ladi. Ana shu suv to'lib va tinib yaxshi oqishi uchun uni har yili kavlab, tozalab turishadi. Buvim bolaliklarida shu katta ariqdan sakrab o'taman deb, oyoq kiyimlari-ning bittasini suvga tushirib yuboribdilar. O'sha chiroyli shippaklarini ko'p qidiribdilar. Ammo topa olmabdilar... Bobolari «taqillatgan eshik ochilmay qolmaydi, bir narsani astoydil qidirsang, albatta topasan», degan ekanlar. Buvim ham chin dildan axtaraveribdilar va kelgusi yil ariqlar kavlanganda tuproq uyumlari orasidan uni topib olibdilar. Ammo shippak oyoqlariga sig'mabdi. Vaqt o'tib oyoqlari katta bo'lib qolgan ekan-da. O'sha katta ariqda Hojiakbar amakim Muzaffarga uy qurib bergan ekanlar.

— Buvijon, jo-on buvi, aytib bering, qanaqa uyliyini?

Velosipedimni tez-tez haydab buvimga yetib olib so'rayman:

— Obbo, bilag'on-ey, esingda bor ekanda. Darrov bilib oldingmi, o'sha qatiqchi bola Muzaffarning o'g'li ekanligini. O'limdan boshqa hamma narsa yolg'on, bolam. Muzaffar besh-olti yilga qamalib ketgan, deyishuvdi. Qaytib chiqib, bolali ham bo'lib-di-da. Mening aqligina o'g'lim esa yog'och ot minib qaytmas yo'lga ketib qoldi...


— Buvi, buvijo-on...

Buvim so'zimni eshitmay jim yurib ketaveradilar.

— Nima deysan?

— Katta ariqdagi uyni aytib bering.

— Aytib bergandim-ku. Hojiakbar amaking uyga kech keladigan bo'lib qolganini. Maktabdan kelib qo'ylarini haydab ketardi-yu, shu ketgancha ham-mayoq qop-qorayib ketganda kelardi. Ungacha uni qidirib topolmay, o'tlab yurgan qo'ylarini o'zimiz uyga olib kelib xavotirga tushib o'tirardik. U esa keliboq uyquga ketardi. Qayerda eding, deb so'rasak, lom-mim demasdi. Kiyimlari kir-chir. Tuf-lisi tuproq bilan to'la... Bu bola biror yerda mardikorchiilik qilayaptimi, ishqilib oxiri baxayr bo'lsin-da, deb zo'rg'a chidab yurardik. Bir kuni ishdan erta qaytdim. Chunki dardu xayolim Hojiakbar amakingda bo'lardi-da. Mahmuda xolang bilan amaking qo'y boqadigan katta ariq bo'yidagi dalaga chiqdik.



MANGALKA NIMA?

*A*trofda hech zog' yo'q edi. Kecha yoqqan yomg'irdan dalalar bilq-bilq loy. Shpilka etigim tup-roqqa botib ketyapti. Mahmuda xolangniki ham.

— Shpilka nima, buvijon?

— Sochga taqadigan sanchqi.

— Nega unda shpilka etigim deyapsiz?

— Etigimning poshnasi ham mixdek ingichka edi-da. Shunaqa oyoq kiyimi kiyaverib, mening ham, Mahmuda xolangning ham oyoqlarimizning suyagi endi qiyshayib o'sib qolgan. Modaning ketidan quvib yashabmiz-da, bolam.

— Mahmuda xolam haliyam modnitsalar-ku.

— Ha, endi o'zini bilganlar Hajga borishni moda qilishyapti. Alloh chaqirsin, ekan, modnitsa Mahmuda xolang ham hademay Hoji ona bo'ladi.

— Dalada nima qildinglar?

— Hojiakbar amakingni qidirdik. Uzoqda qo'ylari bir to'p bo'lib kavshanib yotibdi. Oldida o't-o'lanlar. Amaking yulib olib kelibdi chog'i. Qo'ylarini sira xafa qildirib qo'ymasdi. Ikki nafar qo'yni o'n yettita qilguncha sottirmay, so'ydirmay bir o'zi parvarishlagan amaking. Qish kunlari mahallamizdan chetga chiqib, ko'p qavatli uylardan qotgan non yig'ardi. Yozda esa ko'chalarni to'ldirib, boqqani ketardi keng dalalarga...

Esimda, qurbonlikka bittasini so'yaylik, deb qassobni aytib kelganimizda, amaking oyog'i kuygan tovuq-

dek bo'lib qolgandi. Oxiri chidab turolmadim. So'y-mang, dedim, bozordan boshqa qo'y olib kelamiz...

Shunday qildik. Yangi qo'y keltirib so'ydik. Xullas, daladan yana amakingning daragini topolmadik. Osmonga uchganmi, yerga kirganmi, hech qayerda yo'q. Shu payt xayol bilan oyog'im ariq bo'yidagi do'ngalak ustida yiltillab turgan plyonkani bosib... yerga sho'ng'ib ketdim. O'g'lim kirgan yerga men ham kirib borardim... Dod deb yubordim. Mahmuda chopib kelib qo'limdan ushlagancha u ham orqamdan pastga tushib ketdi. Xushimizni yig'ib, opa-singil bir-birimizga qarab ahvolimizdan qo'rqib ketdik. Lablarimiz oqarib ketgan, ko'zlarimiz ola-kula... Yaxshilab kuzatib bu yer chinakam uy ekanini ko'rdik. Biz shunchaki tuproqlar orasiga qorishib yotgan plyonka — deraza vazifasini o'tashini angladik. Kavlab to'rtburchak shakliga keltirilgan uy shinamgina edi. Tepada o'g'limning qushlari turadigan in, yarmi ochilib ishlatilgan guruch paketi, mosh, kartoshka-piyoz qoldiqlari... Eng asosiysi, men qachonlardir buvingnikidan keltirgan mangalka qozoni bilan turishi ham jahlimni chiqardi, ham qiziqishimni orttirdi.

—Hojiakbar bu yerga ko'chib kelib olgan ekan-ku. Ovqat ham pishirarkan. Siz esa undan xavotir olib och qoldi, nima yeb, nima ichib o'tiribdi, deb yuribsiz. Mahmuda xolang xushimni o'zimga keltirdi.

—Mangalka nima, buvijon?



— Mangalka chelakning qornini yorib, ustiga loy qorib qilingan o'choq, bolam. Bu o'choqni ko'tarib istagan joyda osh-ovqat qilish mumkin.

DARBADAR MUZAFFAR

Shu kuni Hojiakbarning nega uyga horib kelishi-yu, savol so'rasak, miq etmay uyquga ketishining sababini bilib oldik. Chunki u uyidan qochgan Muzaffarga uy qurib bergan, uni osh-ovqat bilan ikki oydan beri boqib yurgan ekan.

— Buvijon, nega bolalar uyidan qochadi?

— Nega bo'lardi? To'qlikka sho'xlik qilib qochadi-da. Endi urf bo'layotgan charm kostumini dadasi maktabga kiydirmagan. Ayrim ota-onalar, bolangiz bolamning ko'nglini cho'k-tiryapti. Chunki biz unga bunaqa usti bosh olib berolmaymiz,— deganini aytibdi. Muzaffar ko'n-mabdi. Dadasi temir yo'lda ishlardi. Bir ket-gancha bir, bir yarim oyda uyiga qaytardi. Bu safar ustozlari o'g'lidan shikoyat qilishibdi. O'qishni unutib, kiyim-kechakka ruju qo'yga-nini, shirinliklar sotib olib bolalarni mehmon qilishga tushib ketganini aytishibdi. Dadasi uni qattiq koyibdi. Muzaffar shu arazlagancha uyidan ketib qolibdi...

Amaking esa unga boshpana yasab beribdi. Hojiakbar o'g'limning xo'p alomat ishlari bor edi-da, aytbersam, ado bo'lmaydi...

SARIQ BUZOQNING FILGA AYLANGANI HAQIDA


*B*uvim amakimning o'n yettita qo'y bc qanlarini aytib berdilar.

— Men ham qo'y boqaman. Men ham qo'ylarimni sotib buzoq olaman. Buzog'imni sotib ot. Otni sotib fil...

— Fildan gapirma. O'shanda «Fillar mening do'stlarim», degan film yangi chiqqandi. Mazza qilib ko'rardik.

Bir kuni amakingning buzog'i yotganicha turmay qoldi. Yaqinroq borib qarasam, qorni shishib ketibdi. Qish edi. Yerda qor yo'q edi-yu, sovug'i etni junjiktirardi. Kun bo'yi u bilan ovora bo'ldi, o'g'lim. O'rtoqlarini chaqirib maslahatlashdi. Yog' ichirdi, ichiga shlanka yuborib yog' quydi. Terisini ko'tarib bigiz tiqdi. Mineral suvlar ham kor qilmadi. Mol doktori ko'rib, «so'yib yuboringlar, margimush yeganga o'xshaydi», dedi.

O'g'limning bir dardi ikki bo'ldi. Axir baland qavatli uylardan o'zi keltirgan nonlarni bo'ktirib bergandi-da. Ular orasida sichqon tekkani kammidi, deysan. Tun og'ib, tong oqaryapti hamki, Hojiak-





bar buzog'i bilan ovorayu sarson. Men charchab ketdim. Ibrohimning buvasi Bahodir sinfdoshimni chaqirdim. U pichog'ini charxlab: «Kel, o'g'lim, jonivorga jabr qilma, so'yib yuboraylik»,—dedi. Qayoqda ko'nsa, hali buzog'ini qashlaydi, hali bizga tashlanadi:


— Kirib yotingla-a-r. Ishingiz bo'lmasin. O'zim qarayman...

Bahodir ham pichog'ini qoldirib, bo'lgancha bo'lar, dedi-da, uyiga ketdi.

Uxlab qolibman. Ko'zimni ochdim-u, hovliga yugurdim. Beixtiyor oq g'ilof yopingan kattakon filni ko'rdim. Ha, hovlimiz o'rtasida o'g'limning oppoq jildli ko'rpasini ustiga yopgan buzoq dahshatli darajada kattarib cho'zilib yotardi. O'g'lim esa uning oyog'i tagida isiriq tutatib, muzlab qolmasligi uchun kurashardi.

Shu payt o'sha fildek semirib shishib ketgan buzoq bir silkinib o'rnidan turdi-yu, ko'rpasiga ham, o'g'limga ham qaramasdan... ichi o'tib ketdi. Hamma yog'i bulg'angan Hojiakbar behad mamnun edi. Shunaqa, amakijoning jonlini bejon qilishni sira o'ylamasdi. Hatto uyda suvdan chiqqan ilonni chelakda boqqan ham, tipratikanlarni ko'paytirib, ariyu tillaqo'ng'izlarga yemish izlagan ham — o'zi edi. Ammo o'zining g'amini o'zi yeyolmadi. Biz ham dardining davosini topolmadik...

Suydirgani kelganim,
Kuydirgani kelganim,



Dunyoning ishlaridan,
To'ydirgani kelganim.

Polvon bolam, mard bolam,
Menga armon, dard bolam,
Sening qolgan umringni
Yashamog'im shart bolam...

Buvijonim sekin-asta shivirlab she'r o'qishda davom etadilar:

Yig'lab-siqtab ko'naman,
Vulqon bo'lib so'naman.
Bir beorom qush misol,
Shoxdan-shoxga qo'naman.

O'kinib ham o'tinib,
Har lahza oh yutinib,
Yashar bo'ldim kun ko'rmay,
Men do'zaxning o'tini...

— Buvi-i, buvij-o-n, yig'lamang, deyman, Abduhalillar qarayapti.

— Qarasa, qarayversin. Abduhalilning dadasi Hojiakbar qayerda ekanligini bilardi, lekin aytmasdi.

— Yur, o'rtog'ingni qidirib kelamiz, desam, «qayoqdan qidiramiz», derdi.

Men «baland uylar atrofida o't yulib yurganmi-kan» desam, «yuring», derdi va birga borib yana birga qaytib kelaverardi...

Men «mabodo, yur, narigi mahalladadir», desam unga ham ko'nardi. Birgalashib qidirgan bo'lardi. Ammo topilmasdi.

Keyin esa, o'g'lim o'zi kelganida unga shivirlab, «qilib bo'ldinglarmi», degan gaplarini eshitib qolardim. Anglardimki, o'g'lim qayerdaligini bilardi-yu, aytmasdi...

Buvim shunday deb, she'rlarini qo'shiq qilib ayta-veradilar:

Befarzand, bepushtman men,
Bitta zambil go'shtman men.
Avaylagan o'g'limga
Bir zarbalik mushtman men...

— Buvi, buvijon. Unday demang, amakilarim, dadam ham o'g'illaringiz-ku. Men ham...

— U bosh farzandim edi. U boshqacha edi...


— Men ham boshqacha bo'laman.

— Umring o'xshamasin, iloyim...

— Bo'ldi, buvi, buvi-i-ijon, menga ham amakim-nikiday qo'y olib berasiz, Ikkita. Ikkitani o'n yettita qilib olaman.

— Keyin-chi?

— Keyin ularni sotib, sizni Makkatilloga olib boraman. Makkatilloda yuribdilar amakim...



Buvimning o'zlari aytgan gaplari esimga tushib ketadi: — Makkatillodalar, Hojiakbar amakim...

Buvim esa meni quchoqlab, ko'z yoshlarini yuzimga surtadilar.

— O'zim o'rgilay, sen bilag'on bolamdan. Sengina dardkash-u dilkash nevaraginamdan.

BU KIMNING PULI?

— *B*uvi, qarang, pu-ul.

— Qanaqa pul?

Men velosipedimdan tushib, qumlar orasida yotgan oppoq, yaltiroq tangani olib buvimga berdim.

Buvim uni olib, «ellik so'm ekan», dedilar-da, yana o'sha joyiga qo'yib qo'ydilar.

— Pul topib olsang, olmagin, deb menga Murod buvang o'rgatganlar. Qolaversa, sen buncha topag'on bolasan-a?

— Men ko'cha, hovlilarni supurib, hammayoqqa razm solib yursam ham hech pul topib ololmayman. Sen esa... Balki Nuriddinxo'jaboyga o'xshagan-dirsan?

— Nuriddin...ni (xo'jaboy deyolmay, zo'rg'a gapiraman) keyin aytasiz, sizga nega pulni olmagin deganlar Murod dodam, shuni aytib bering...

— Murod dodang yoshliklarida sigir olaman deb bozorga borgan ekanlar. Oyoqlari ostida pul yotgan

ekan. Qip-qizil o'n so'm pul... Bu pulga yarim qop un beradi-ku, debdilar-da, uni olib, cho'ntaklariga solibdilar. Shu payt «pulimni nega olding, qani cho'zib qo'y-chi», deb bir yigit oldilaridan chiqibdi. Odamlar yig'ilibdi. O'sha yigit yig'ilganlarga «pulim tushib ketgandi, bu yigit uni olib cho'ntagiga soldi. Ichida ismim yozilgan o'n so'mlik pul ham bor», deb hammaning ko'z oldida o'sha o'n so'mni ko'rsatib, qolgan pullarini ham olib qo'yibdi.

— Buvi, endi men ham birovlarining pulini olmayman. Topib olsam ham olmayman.

— To'g'ri qilasan. Axir hech kim bekorga pulini ko'chaga tashlab qo'ymaydi-ku. Mabodo tushirib qo'ygan bo'lsa, bu pul kimniki, — deb so'rash va kattalarga ko'rsatish kerak.

Biz gaplashib yurib, buvimnikiga boradigan buri-lishga yetib keldik. Ko'chamizning bolalari endi uzoqda qolib ketishdi. Ular men bilan buvimnikigacha borishsa, uyidagilar xavotir olishadi-da. Xavotir olish yomon narsa.

BUVIM XAVOTIRGA TUSHGAN KUN

*B*ir kuni supurgi sotama-a-an, deb kelgan amaking orqasidan ketib qolgandim. Amaki ham yaxshi odam edi. Mening ismimni so'rab olib, xuddi amakimga o'xshab:





— Abdumajid — toy bola, dadalari boy bola, qachon maktabga chiqasan? — deb so'ragandi. Men ikkita qo'limdagi ikkita barmog'imni ko'rsatgandim.

— Ikki yildan keyinmi?

— Yo'q, ko'rmayapsizmi, ikki qo'limni ko'rsatyapman-ku.

— Voy, bilag'on bola-yey, sen sanashni ham bilasanmi? Demak, to'rt yildan keyin chiqarkansan-da. Qani menga sanab ber-chi.

— Nechchigacha?

— O'ngacha.

— Men yuzgacha sanashni bilaman, faqat siz, to'qqizdan keyin necha kelishini aytasiz-da.

— To'qqizdan keyin o'n keladi.

— Yigirma to'qqizdan keyin-chi?

— O'ttiz.

— O'ttiz to'qqizdan keyin-chi?

— Qirq. Qani bo'laqol, sanay qol.

— Ruschami, inglizchami?

— Inglizcha sanashni ham bilasanmi?

— Faqat ten — o'ngacha.


— Ruscha sanashda-chi?

—Agar devyatdan keyin necha kelishini aytib tursangiz, yuzgacha...

Biz gaplashib juda uzoqqa ketib qolibmiz. Bilmadim, u amaki meni olib ketib qolmoqchi bo'ldimi yoki adashtirib qo'ymoqchi bo'ldimi, bunday qaragam, butunlay begona joylarda yuribman. Uyimizning tomi ko'rinmaydi, Abduhalillarning ishkimli ayvoni ham.

To'xtab, qidira boshlagandim, supurgichi amaki ham meni tashlab ketib qoldi. Katta ko'chada qolib ketdim. Yig'lasam hamma masxara qiladi. Yig'lamay desam, qo'rqib ketayapman. Endi qayoqqa boraman?.. Agar siz adashib qolsangiz nima qilardingiz? Hech qayoqqa yurmay, bir yerda o'tiraverish kerak, deysiz-da, buvimga o'xshab. Buvim bilan bozorga borganimda buvi, adashib qolsam, nima qilay, deb so'ragandim. O'shanda buvim, adashgan joyingdan bir qadam ham jilmay, o'tiraver, degandilar. Bu ko'chada mening adashib qolganimni uydagilar bilishmaydi-ku. Men aslida adashmadim, balki ketib qoldim. Shunday ekan, endi o'zim uyimni topishim kerak.

Shunday deb, kelgan tomonimga qarab yura boshladim. Voy, men bu tarafdin kelganmidim, o'zi? Yo'q-yo'q, u tarafdin kelgandim. Y-o'-o'-q, yana o'xshamadi. Men qayoqdan kelgandim?



MEN QAYOQDAN KELGANDIM?

*B*ir kuni shu savolni dadamga berdim. Dadam, derazadan uchi-i-ib onangning qorniga kelib tushgansan. Undan keyin shu qorindan bizning hovlimizga, degandilar. O'shanda oyimning qornilari mana bundo-o-q kattakon edi.

— Qanday qilib derazadan uchib kirganman?

— Seni laylaklar tashlab ketgandi-da.

— Yo'q laylaklarni gapirmang, — degandi oyimlar. — Shu uyga kelganimga to'rt yil bo'lyapti. Ammo birorta ham laylakni ko'rganim yo'q.

— Menga laylakni ko'rsating. Laylakni ko'raman, — deb yig'lagandim o'shanda. Hozir ham o'sha laylakni sog'inib ketdim. Qaniydi, meni yana uyimizning derazasidan shu laylak tashlab ketsa.

— Hey bola, nima qilib turibsan bu yerda? Kimning o'g'lisan?

Men yelka qisdim.


— Dadangning oti nima, deb so'rang, — dedi «Damas»da o'tirgan bitta xola.

Men darrov javob berdim:

— Abduvohid. Buvamning oti Abduvahob. Amakimning oti Abduhamid... Buvamning ham shunaqa «Dama»si bor.

— Iya-iya, o'zimizning qarindosh ekansan-ku. Nima qilib yuribsan bu yerda?

— Adashib qoldim.



— Qani o'tir-chi, bizning mashinaga, seni uyingga olib borib suyunchi olarkanmiz-da.

Men birpasda uyga yetib keldim. Ammo bu paytgacha buvam hamma qo'shnilarnikiga meni izlab kirib-chiqib bo'libdilar. Meni tanigan bolalar meni qidirib hamma ko'chaga yoyilib ketibdi. Oyijonim esa ukamni emizib yig'lab o'tirgan ekanlar...

Men kelgach, kechgacha uyimizdan odam arimadi. Hatto Hoji buvimlar ham kelib meni achomachom qildilar. Axir ularning qo'llari yumshoqqina edi-yu. Qiziq, nega Hoji buving qattiqqo'l dedilar-a, buvijonim?

Borib ushlab ko'rmasam bo'lmaydi.

SEN SAMOLYOT HAYDAGIN, BOLAM!

*B*iz yana indamay buvim bilan yo'lda keta boshladik. Shu payt ariqqa tushib, chetga chiqib qoldim. Sal qoldi «Jiguli» ustimdan yurib ketishiga. Buvijonim g'ildiragi loy bo'lgan velosipedimni toza suvga yuvib:

— Ko'ziga qarab yurmaydi-da bu bola, otasi ham shunaqa bemaza edi, — dedilar. — Bo'lmasam, katta ko'cha. Mashinaning ham, piyodaning ham o'z yo'li bor.

— Buvijon, shofyorni taniysizmi?

— Murod buvangning o'rtog'i Ahmad qorining nabirasi bu. Otasi yoshligida bir mashinani garajiga qo'yib o'g'rilarga yordam bergandi, shuning uchun to'rt yil qamalib chiqqan. O'g'ri esa yo'q bo'lib ketgan.

— O'g'ri kim edi?


— Oti Bo'ri edi. O'shanda birovning yangi «Volga»-siga o'tirib qamishzorgacha haydatib borgan-da, keyin egasini o'ldirib, o'sha mashinani to'g'ri Ahmad qorinikiga olib kelib qo'ygan.

— Sotib oldim, hujjatlari to'g'ri bo'lguncha senikida turib tursin, evaziga pul beraman, — degan. Pul o'lsin-a, pul o'lsin! Oson pul ishlayman, deb bir kechada jinoyatchiga aylangan. Qamoqdan chiqib ham tinch yurmagan. Birovning og'iroyoq kelinini turtib yuborib, bir emas ikkita odamning umriga zomin bo'lgan...

— Buvijon, Murod buvam ham mashina haydaganlarmi?

— Ha, ellik besh yil haydovchi bo'lganlar. U paytlarda mashinalar kam edi. Birovni tug'ruqxonaga olib borish deysanmi, to'y jo'natishmi, odam tashish-u kartoshka-piyoz tashishmi — hammasiga yarayverardi, buvangning katta yuk mashinasi.

Ammo biror marta birovning dilini og'ritmaganlar. Bexato va beminnat ishlaganlar. To'g'ri, ular ham shuncha yillar davomida bir marta falokatga



uchraganlar. Birovning bitta qo'zichog'ini bosib olganlar. Qo'zichoq egasi uni darrov o'sha yer-ning o'zida so'yib yuborgan. Keyin uyiga olib borib o'shaning go'shti bilan buvangni ham mehmon qilgan va:

— Men bu qo'zichoqni olti yil boqardim. Olti yilda kamida oltita qo'zichoq tug'ardi. Shuning uchun marhamat qilib oltita qo'yning pulini to'lab bera-siz, — degan.

Adajonim noilojdan oltita qo'yning pulini to'laganlar. Keyin shofyor bo'lish oson emasligini juda yaxshi bilib olganlar. Shu-shu tez haydamay, hamisha oraliqni saqlab, hushyor bo'lib yurganlar. Ular aytgan gaplarni men she'r qilganman:

To'yga bordi minib yangi «Jiguli»,
Tekin bo'lsa sekin urar Sherquli.
Tanlab-tanlab kurk tovuqday cho'qidi,
Umar Xayyom she'rlaridan o'qidi.

Berib konyakto'ralarga salomni,
Oldi avval oshni, keyin kalomni:
— Asli to'rtta svetofor chirog'i,
Faqat bitta qizilida yo'l ochiq.

Shuning uchun shoshgan rizqini olgay,
Shoshmaganlar har borada kech qolgay.

To‘ydan qaytdi gandıraklab Sherquli,
Oh, u bilan gandıraklar «Jiguli».
Axir Umar Xayyom eshak mingandi,
Sherquliga buni aytmoq kech endi...

Tog‘alaring mashina olsa, dadang, amakilaring mashina minsa, Hoji buving, «Murod buvangga o‘xshanglar», deb duo qiladilar. Hammasiga Murod buvangning yo‘lini bersin.

— Buvijon, men ham mashina haydayman.


— Mayli, hayday qol. Ammo menga qolsa, samolyot haydaganing yaxshiroq. Chunki osmon keng. Toza havo. Ko‘kda hech nimaga to‘qnashmay, erkin uchaverasan. Yerda-chi, undaymas. Sen katta bo‘lguncha uchar mashinalar — kichik samolyotlar chiqib ketsa kerak.

Men kichik samolyotimga minib olgandek bo‘ldim.

Kichik samolyot,
Kichik samolyot.
Bo‘l menga qanot.
Yo eshak, yo ot...

Samolyot sotib olish uchun juda ko‘p pul kerakda.

— Buvijon, hali menga sen Nuriddinboyga o‘xshab pul topag‘onsan dedingiz. O‘sha boy kim o‘zi?



— Panjarali ayvoni ko'chaga qaragan baland uyda turardi. Endi u uy buzilib ketgan. O'rniga mashina yuvadigan joy qilib qo'yishdi. Bolaligimda o'sha uyga ko'p kelardim. Dugonamning uyi edi-da. Dugonam bobosi ularni tashlab chet elga ketib qolganini aytardi.

— Nega ketib qolgan?


— Nega bo'lardi? Boylarga kun yo'q zamonlar bo'lgan-da. Ketmasa yo otishardi yoki qamashardi.

O'shanda dugonamning buvasi va tog'asi yosh bola ekan. Uyda qolayotganlar-ga «omon bo'lsak ko'risharmiz, sizlarga sho'ro hukumati hech narsa qilolmaydi», debdi. «Menga esa qilganini qilib bo'ldi. Boyligimni tortib oldi. Shaxsiy yerlarimni kolxoz qildi. Endi faqat yo'l xarajatiga yetar pulim bor. Sizlarga ham hech narsa qoldirolmayman. Sizlarni olib ham ketolmayman», deb yig'lab-yig'lab uydan chiqib ketibdi...

BIR XUMCHA OLTIN

Shu ketgancha o'sha boy qaytmas yo'lga ketgan. Alloh nazar qilgan rizq-nasibali bandalar urinadi, surinadi, baribir o'z o'rnini topib ketadi.

Bir kuni bir payg'ambar bandalar rizqi tomib turgan jilg'ani kuzatibdi. Biridan hayqirib oqarmish, biri-



dan tomchilab... Shunda o'z hassasi bilan ikkinchi jilg'aga birinchi jilg'adan suv burib yuboribdi. Ammo rizq-nasibasi ko'payish o'rniga tomchilab turgani ham to'xtab qolibdi. Alloh har kimni o'z taqdiri, hech kimga o'xshamas shakl-u shamoyili, rizq-nasibasi bilan yaratadi. Hammaga ketmas davlat, keng fe'l bersin, ilohim.

— Buvi, buvi-i!

— Nima deysan?

— Nuriddinboyni aytib bering!

— Aytdim-ku!

— Pul topib olganlarini ayting.

— Ha-ya, qayeriga keluvdim?

Buvim qayerga kelganlarini bilsalar ham jo'rttaga mendan so'raydilar. Meni gapirtiradilar.

— Boy pulim yo'lkiraga yetadi, deb bolalariga hech narsa qoldirmay Maxkatilloga ketibdi.

— Maxkatillo emas, Makkatillo.

Makkatillo — Allohning uyi. U taraflarga borish yetti uxlab tushimizga ham kirmasdi. Hur-hur shamollar yeldi. Omon-omon zamonlar keldi. Endi bola-chaqasidan tinganlar saf-saf bo'lib hajga borib kelishyapti. Mahallamizdagilar o'sha Nuriddinboyning yangi oilasidan bo'lgan farzandlarini ham borib ko'rib kelishibdi. Boy u yerda ham tup qo'yib, palak yozgan ekan. Imonli, e'tiqodli nabiralari o'tgan yili qarindoshlarinikiga kelib ketishdi. Bobolari qadam bosgan yerlarni ziyorat qilishibdi. O'z yurtining mustaqil



bo'lganini, bordi-keldilar yo'lga qo'yilib, hammayoq chiroyli bo'lib ketayotganini boy ko'rolmadi-da.

— Buvi, buvijon, Nuriddinboy pulsiz ketganmidi?

— Bechora boy! Aslida-ku, bitmas-tuganmas davlati bo'lgan uning. Bu davlatni o'z aqli, tejamkorligi bilan to'plagan. Ammo sovetlar bir hamlada uni tortib olib, hamma bilan teng — yalangoyoq qilib qo'ygan. Xullas, o'sha boy toat-ibodatlar bilan yo'l-yo'lakay birovga aka, birovga uka bo'lib, ikki oy deganda ko'zlagan manziliga yetib olibdi. U yerlarda qish bo'lmaydi. Shuning uchun kechalari Arofat tog'ida tunabdi. Kunduzlari sut-qatiq topsa qurut qilib, topolmasa choy damlab, hojilarga ulashib, kun kechiribdi. So'ngra biroz pul yig'ib bir g'ayridindan kichik uy sotib olibdi. Uyni ta'mirlatayotsa, eski devor orasidan bir xum oltin chiqib qolibdi.

— Ey Alloh men uy sotib olgandim. Lekin tilla xumcha meniki emas, shuning uchun bu tillalarni egasiga topshirishimga ko'mak ber, — debdi. Qiyalib, uzoq qidirib, uyni sotgan o'sha g'ayridinni topibdi. Ammo u tillani olmabdi.

BIROVNING HAQI

— *M*en bu uyni birovdan arzonga sotib olgandim. Tilla borligini bilmaganman. Shuning uchun tilla meniki emas. Tillani olmayman.

— Unda sizga uy sotgan odamning manzilini ayting!

— U inson allaqachon dunyodan o'tgan. Zurriyotlari esa boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishgan.


Shu kuni Nuriddinboy uxlolmay chiqibdi. Birovning haqidan qo'rqish, oson kelgan boylikdan hazar qilish uning ham qonida bor edi. Aslida ota-bobolarimiz birovning moliga egalik qilishni o'ylashmagan. O'zimizni buyursin, deyishgan. Hoji buving menga bir narsani aytib bergandi. Aytib beraymi?

«Ayting», deb bosh silkitaman. Buvijonim esa menga engashib, yuzlarimdan o'pib oladilar.

— Albatta aytaman-da. Ha-ha, o'zi ham xuddi shu uyning oldiga kelib qoldik.

Mana shu uyda bir ziqna, o'g'ri odam yashagan ekan. Kimnikiga kirib chiqsa, hech bo'lmasa qo'l yuvib turgan sovunini o'g'irlab chiqarkan. Buni mahallasidagilar juda yaxshi bilisharkan. Ammo dakki berib aytishga yuzlari chidamas ekan. O'sha odamning uyi chiroyli ekan. Tilla halli piyola-choynaklari, qo'sha-qo'sha gilam-u atlas, baxmal ko'rpa-to'shaklari ko'p ekan. Uning kasal bo'lib qolganini bilgan qo'shnilar unikiga kirishibdi. Qay ko'z bilan ko'rishsinki, qachonlardir yo'qolib qolgan, mahallaning eskirib ketgan piyolasida unga suv tomizishayotgan ekan.

Shunaqa, uning eng yomon kunida o'zi qizg'anib yiqqan-terganlari emas, balki o'zi o'g'irlab chiqib,



ko'pchilikning asabini buzgan o'sha piyola ish berayotgan ekan...

Buvim yana xayol surib qoladilar. Men ularni yana gapirtirgim keladi.

— Buvi, birovlarining narsasini olish yomon. Men ham olmayman.

— Albatta, qo'zichog'im, o'zidan so'ramay olmagin. Agar bersa, ehtiyotlab yana egasiga rahmatingni aytib qaytarib olib chiqib bergin. Hozir ayrim odamlar birovning molini oson hazm qilib ketadigan bo'lishgan. Hatto qarzga deb olgan pulini ham qaytarishdan tonib yurishadi. Albatta ularning biri ikki bo'lmaydi. O'zi o'tsa, farzandlari tortishadi bu gunohning jazosini.

QIZIL RANG

*B*uvim yana jim keta boshladilar. Men ularni gapirtirgim kelaverishini bilasiz. Buning uchun har qanaqasiga yo'l topaman:

— Buvi qarang, ho'kiz kelayapti.

— U ho'kiz emas, kichkina buzoq-ku. Chetroqqa chiqib tur, velosipeding qizil rangda. Tag'in buzoq suzib olmasin.

— Qizil rangni suzadimi?

— Bo'lmasam-chi. Chet ellarda katta ho'kizlar bilan jangga tushuvchilar qo'lga qizil latta ushlab ola-

di. Qizil rang hayvon qonini ko'pirtirib, urishqoq qilib qo'yadi. Bir kuni meni ham o'zimizning sigir suzib olishiga ozgina qolgan.

— Sigirimiz bormidi?

— Ha, o'shanda men yoshgina kelinchak edim. Uni havasga sog'ardim. Suti ko'pirib tushardi. Sut ko'pigini yuzimga surtib olardim.

— Nimaga?

— Yuzim oppoq bo'lsin deb. Keyinchalik qatiq surtadigan bo'ldim.


— Oq tutni ham ezib surtib olasiz-ku.

— Ha, oq tut ham upa-eliklardan ko'ra ming marta yaxshi-da. Bir kilo shokolad o'rniga qishda bir kilo uzum olib yedirardim bolalarimga. Yaxshiyam shunday qilgan ekanman. Bo'lmasam, ayrim sinfdoshlarimning yuziday ajinlar ichida ajina bo'lib qolardim. O'shalarga hayronman, yoshligidan krem-u upalarni chaplashtirib yurishardi. Qarib ham quyulishmay, yengsiz ko'ylakda qoshlarini pilikday qilib, hamisha bahor hammasi. Koshki yarashsa. Alloh yaratgan husn ustidan yaratuvchilik qilishlariga hech qo'shila olmayman...

Men ularning gaplariga ba'zan tushunmayman. Istagan paytda istagan savolimni beraveraman:

— Buvijon, nega suzib olmoqchi bo'lgan o'sha sigiringiz?

— Sigirimizning oti Bayram edi. Bahor bayramida tug'ilgan edi-da. Xuddi mana shu o'tib ketayotgan



buzoqchadekligidan boqqan edik. Yuvvoshgina sigir chelakni olib endi sog'aman, deganimda birdan hurkib, menga hamla qila boshlagan. Buvang darrov oq xalatni olib chiqib bergan. Men qip-qizil ko'ylakda sigir sog'aman degan ekanman-da.

—Endi bildim, qizil rangdan hayvonlar qo'rqishini. Men qizil rangli kiyimda ularning oldiga bormayman.

YETTI HO'KIZNING PULI

—*B*uvi, bitta gapni gapirib, oxirigacha aytmaysiz. Bir xillarda uyqum o'chib, buvim shunday degandilar, u yog'i nima bo'lganiykin,—deb o'ylab yotaman. Sizdan ertalab so'rab olaman, deyman-u, keyin esimdan chiqib ketadi. Hozir ham o'ylab ketayapman.


—Nimani?

—Boy topib olgan oltinini nima qilganini.

—Nima qilishi kerak edi seningcha?

—Bilmadim. Tilla topib olganini birinchi eshitib, endi boyga mazza bo'pti-da, kolxozga topshirgan oltinlarini qaytarib olibdi, devdim. Puli borlar mazza qilib yashaydi. Sizning gapingizni eshitib, birovning haqini endi nima qilarkin, deb men ham qiynalib ketdim.

—Shunaqa, bolam. Birovning haqi hech kimga vafo qilmaydi. Shuning uchun halolidan bersin, deb ni-



yat qilish kerak. Halol rizq tatiydi, bolam. Sen hali ho'kiz deding o'sha kichkina buzoqchani. Sen ho'kizni ko'rganmisan?


— Yo'q.

— Ho'kizlar katta va kuchli bo'ladi. Burniga zanjir taqishib, uni yer haydashga majbur qilishadi.

Hoji buving shu yangi uyga ko'chib chiqqanida juda qiynalib qolishgan ekan. Biz yosh paytimizda bir kuni bir amaki uyimizga kirib keldi. U bilan dadam va onam uzoq gaplashishdi. Hatto yig'lashib ham olishdi. Keyin biz boy bo'lib ketdik. Uyimiz ham tezgina bitib ketdi. Bilasanmi, u amaki bizga nima keltirgan ekan? Yettita ho'kizning pulini. Bobom rahmatli o'sha amakining otasiga yettita ho'kiz bergan ekan. U odam qiynalib qolgan ekan-da. Dunyodan o'tar paytida o'g'liga bir kuni boyib ketsang, qarzimni uzib qo'yarsan, deb bizning manzilimizni aytib ketgan ekan...

Buvim yana jimi-i-b qoldilar. Men bunday jimlikni yomon ko'raman. Shunday paytda ularning ko'zlariga qarasangiz, sizga kulib qarab turadilar-u qop-qora, dum-dumaloq ko'zlaridan yosh to'kilib ketadi.

Mayli, yig'lab olsinlar, buvilari-yu buvalarini eslab. Hammadan ham dadalarini eslab ko'p yig'laydilar. Bir kuni oyim ularga «uyalmaysizmi, oyijon, ellik yoshdan oshib, ada, ada-jo-n, deb yig'lashga.



Qo'shnimiz Abrorni qarang, bir marta ham dadasini ko'rmadi. Chidab yuribdi-ku», degandilar.

Buvim esa, «kichkinalar ko'nib ketadi, keksa yetimlarning ko'nishi qiyin bo'larkan», deb battar yig'lab bergandilar. Shuning uchun ham men shunaqa paytlarda indamay turaman.

MAKKATILLO FUQAROSI

— *B*uvi, qachon aytasiz, boy oltinini nima qilganini?

— Yana aytmadimmi?

— Y-o'-o'-q.

— Voy tavba, o'zing bilib olmadingmi? Borib davlatga aytadi-da bunday odamlar. Bizda ham shunday. Topilmalar idorasi bor. Talabalik davrimda kostum-yubkamni tozalatibman-u, uni uyga olib kelmay, avtobusda qoldirib ketibman. Uch-to'rt kun achinib yurdim. Keyin esimdan chiqib ketdi. Bir kuni uyimizga xat tashlab ketishibdi. Topilmalar idorasiga bordim. Manzilim yozilgani uchun pasportimni ko'rib, o'sha kiyim-kechagimni menga qaytarib berishdi. Yaxshi odamlar ko'p-da.

— Boy ham yaxshi odam ekan-da, a?

— Bo'lmasam-chi. Shuning uchun ham Alloh uni yarlaqadi. Arabiston podshohi u topgan tillani olib, evaziga Makkatillo fuqarosi degan pasport berdi. Bunday halol odamlar hamma yerda qadrlanadi.

Bir kuni men ham avtobusda yomg'irpo'sh topib oldim. Bunday qaragam, o'rindiqlarda chiroyligina bo'lib, bir o'zi mung'ayib turibdi. Oppoqqina yomg'irpo'shning shu'la sochib turgan yulduzlari ham bor edi.

— Yomg'irpo'sh nima-a?

— Zontik. Bilmadim-u, biz o'z so'zlarimizni qachongacha tarjima qilib yurarkanmiz? Men ana shu nomlarning o'zgarishiga ham, lug'atimizga kirib, o'zimizniki bo'lib ketgan so'zlarni o'zgartirib tozalashlariga ham qarshiman. Senga aytsam, biz hozir ketyapmiz-u, Hoji buvinglar yashaydigan huv-v anavi ko'rinib turgan uyga, o'sha yerda tug'ilganman. U yerdan hozir orqada qolib ketgan bu uyimizga kelin bo'lib tushganman. Demak, yashash joyim uyimiz raqamini hisobga olmaganda, deyarli o'zgarmagan. Ammo, aytaylik, o'ninchi sinfni bitirgunimcha mahallamiz-u tumanimiz nomi ham, maktabim nomi ham besh marta o'zgargan. Birov, bu eskicha nom deb o'zgartirgan. Birov qizillar yugurdagining nomini olib yurish kerakmas, degan. Ammo ana shu o'zgarish va o'zgartirishlar juda katta pul, mablag'lar evaziga bo'lgan.

Buvim yana xayol surib qoldilar. Mening esa ichim qizib ketaveradi. Nimaligini bilmadingiz-a, albatta o'sha topib olingan zontik uchun-da.

— Buvi-i buvijo-on.

— Nima deysan? — tovushlarini baland qilib so'raydilar buvim.



Men labimni burib, yig'lab yuboray deyman.

— Voy, qo'rqitib yubordimmi seni? Kechir, kechiraqol. Qani bir achom-achom qil-chi.

Men buvimni achom qilib, quloqlariga pichir-layman, «kechirdim».

— Nima-a?

— Kechirdim... — yana-da sekinroq gapiraman.

— A?

— Kechirdi-im... Buvi qulog'ingiz burushqoq, shunga yaxshi eshitmayapsiz. Buvim mening yuz-ko'zimdan o'pib, yig'lab yuboray deydilar.

— Xojakbar amaking ham shunaqa gap aytgan-da. Uning so'zini she'r qilib qo'ygandim:

Qulog'in ushlab Hoji,
Qilar o'zini so'roq:
Nega odam qulog'i,
Tekis emas, burushqoq?
Dazmol qilsa so'zlarni,
Eshitarmi yaxshiroq?...

Men buvim yana xafa bo'lib qolmasinlar deb, tez-tez chapak chalib yuboraman.

— Rahmat, rahmat qilmaysizmi?

— Rahmat, rahmat — buvim boshlarini liqillatib, qo'llarimni siqib qo'yadilar.

AMAL — AMALLAB TUR DEGANI

— Zontik qani?

— Qaysi?

— Topib olibsiz-ku...

— Ha-ya... O'sha zontikni o'sha avtobusda kim qoldirib ketdiykin, — deb uch kun uni olib yurdim. Baribir egasini topib olaman, deb o'ylardim. Taqillatilgan eshik ochilmay qolmaydi, axir. Birovning omonatini albatta qaytarish kerak. Chunki ming chiroyli bo'lmasin, berging kelmasdan o'zingniki qilib olishni istamagin, baribir, birovniki buyurmaydi. Narsasini yo'qotgan odam achinmay qolmaydi. Axir mehnatlari yoki misqollab yiqqan hurmatlari evaziga topadi-da kishi molini. Bir kuni men ham avtobusda yangi zontigimni qoldirib ketib, uzoq paytgacha achinib yurganman. Eslasam, hozir ham xafa bo'lib ketaman. Ikki marta emas, balki to'rt marta buklanadigan o'sha zontigimni menga bir dugonam chet mamlakatdan sovg'a qilib keltirgandi. Hali unga to'yimasimdan birinchi kuniyoq tutdim-u, yo'qotdim. O'shanda otangni bog'chaga olib ketayotgandim. Aslida unchalik yomg'ir ham yog'mayotgandi. Yoshlik ekan-da, yangi narsamni bir maqtanib odamlarga ko'rsatgim kelgandi. Unga qattiq hirs qo'ygan ekanmanmi yo o'zimning ko'zim tegib qoldimi, xullas, yo'qotdim, boshqa ko'rmadim.

— Uf-f, buvi, menga o'sha zontik egasini qanday topganingizni ayting.

— Men o'sha zontik egasini ko'rgandek edim. Oyingga o'xshagan oppoqqina, chiroyli bitta xola edi. Bir kuni uni metro oldida ko'rib qoldim, orqasidan yugurib borib, mabodo, zontigingizni yo'qotmadingizmi, deb so'radim.

— Hozir emas, uni bir oy oldin unutib qoldiribman, o'zi oppoq, yulduzchali edi...

— O'sha menda. Ammo uni men ham uyimda qoldirib kelibman.

— Shunday qilib, biz bir-birimiz bilan tanishib ham oldik. Kechqurun Hojiakbar amaking uning uyiga zontikni tashlab keldi. Keyinchalik bu ayol buvangni o'z ishxonasiga juda katta ishga taklif qildi. Shu voqea sabab bo'lib, mehribon opa-singildek bo'lib ketdik.

— Agar zontikni bermaganingizda, buvam boshqa ishda ishlab yurarmidilar?

— Ha. Kim-kimga yaxshilik qiladi, ish beradi, amal beradi. Amal amallab ishingni uddalab tur, degani. Buvang ham amal-taqal qilib, amalga minib, amaldor bo'lib ketdilar...

— Buvam baribir amaldorlik qilmaydilar-u?

— Ho-o, keksa kayvon-ey. Sen qayoqdan bilasan buvangning qanday ishlarga qodirligini? Uyda ham katta amaldorlar-ku. Aytganlari aytgan, deganlari degan.

— Buvi, buvi. Buvamning qulog‘i eshitmaydigan kishiga salom berishlarini aytib bering.

— Uni, buvangning o‘zlaridan so‘ra.

— Buvi, buvijon, o‘zingiz aytib bering. Siz chiroyli qilib aytasiz.

Buvim esa tez-tez yurib ketaverdilar.

— Buvi-i-i!

— Nima deysan? Bo‘laqol tezroq. Qachondan beri ko‘chadamiz. Bunaqada qachon yetib olamiz Hoji buvingnikiga?

— O‘zingiz aytmayapsiz-ku!

Men yana labimni burib, velosipedimning tormozini bosib, ko‘chada turib olaman. Buvim esa oldimga chopib keladilar.

— Chetroqqa o‘tib, soyadan yur. Qara, boshingdan oftob o‘tib ketyapti.

Men jim turaveraman. Buvijonim esa meni achom-achom qiladilar.

— Nima deysan?

Men ularning ziraklarini tortib, quloqlarini ushlayman.

— Unday bo‘lsa, quloqlari burishganni aytib bering.

— Quloqlari burishgan,
Peshonasi tirishgan.

— Bu — kim?

— Buvim.

— Og‘zida so‘lagi,
Kir-chir ko‘ylagi.



- Bu-chi?
- Abdubosit.
- Yo‘q, bu — sensan. Darrov ko‘zingdan yosh oqib, burningdan sizib chiqyapti sarg‘ayib!

SOCHIQ

*B*uvijonim anor o‘ralgan sochiqqa yuz-ko‘zlarimni artib qo‘yadilar.

— Hoji buving oy borib omon kel, deb bizga osh-ovqat solingan kosani o‘rab berib yuboradigan sochiq bu. Yigirma-o‘ttiz yildan beri ayab ishlatib keladilar.

— Voy-bo‘, dadamdan ham katta ekan-ku!

— Bu sochiq Hojiakbar amakingdan ham katta. Hojiakbar amaking besh oyligida buvang askarlikka ketgandi.

— Armiyagami?

— Voy bilag‘on bolam-ey! Institutni bitirganlarni bir yilga xizmat qilgani yuborishardi. O‘shanda ketaturib: «Meni kuzatgani chiqmanglar. Yaqin joyda xizmat qilaman. Har hafta kelib turaman», — degandilar. Qayoqda! Naq o‘n yetti kundan keyin, endi yetib keldik, deb xat kelgandi...

Endi esa ota-onalar bolalarini xizmatga xohlashsa yuborishadi, xohlashmasa yo‘q. Armiyaga borish u paytlarda majburiy edi. Tez-tez falonchining

tobuti kelibdi, degan vahimali gaplar tarqalib turishini aytmaysanmi? Guzarimiz nomi ham armiyadan temir sandiqqa solib kelingan yigitning nomiga qo'yilgan...

Buvim yana jim bo'lib qoldilar. Bilasiz, bunday jimliklarni men sira-sira yaxshi ko'rmayman. Chunki ko'zlari jiqqa yoshga to'lib turadi-da! Ularni yana gapga solishim kerak.

— O'zingiz sochiq deb turib, armiyadan gapirib ketasiz.

— Ha-ya! Sochiq... Bu sochiqni buvingga Marg'uba opoqing olib kelgan ekan. Olib kelgan-u, keyingi haftada buyragidan tosh oldirib, o'l-ib qolgan ekan.

— Tosh oldirsa o'ladimi?

— Ajali yetsa, o'ladi. Ammo odamlarimiz ham ko'p soddada. Operatsiya qilingan ayol oldiga ham tuqqan onasini soqchi qilib qo'yishadimi?! «Oyijon, chanqadim, suv bering», desa, muzdakkina ekan deb, bir banka qatiqni ichishiga yo'l qo'yib beribdi. Katta mehr ham ba'zida dushmanlikka aylanarkan. Odatda operatsiya qilinganlarga limon yalatib, ho'l latta bilan og'zini artib, chanqog'ini qondirib turishardi. Qari ona buni tushunmagan... Shunday qilib, Marg'uba opoqingning to'rt qizi bo'zlab qolaverdi. Yosh o'ladimi, qari mi, Allohning ishi ekan. Marg'uba opoqing Abdumanop opoqdodangning uzoq vaqtdan beri kasal yotganidan siqilib, «yana yetti yil yashasalar, katta qizimni uzatib olardim», derdi yig'lab. Buni qaraki, o'zi bir



haftalik xastalikka uchrab, olamdan o'tib ketdi. Abdumannop opoqdodang esa qizlarini yotgan joyida uzatib, hatto beshik to'ylarigacha o'tkazib, keyin olamdan o'tdi.

— Hoji buvim opoqimni eslab turishga saqladilarmi sochiqni?

— Ha, Hoji buving buyumlarni qadrlaydi. Murod buvang esa uzatilgan qizlarini uyda olib o'tirmaslikni o'ylaydilar. Oh, adajonim-a! Juda sog'inib ketaman, shunaqa paytlarda adajonimni.

— Qanaqa paytlarda?

— Sening aqlli gaplaringdan, ko'p beradigan savollaringga javob berishdan zerikib ketadigan paytlarda-da! Agar ko'ngillari bo'sh bo'lganda, bunday kunlarni ko'rib, shunday boyvuchcha buvi bo'lib o'tirmasdim.

— Nega?

— Nega bo'lardi. Adajonim ishdan kelib, charchab ketdim, o'chiringlar radioni, televizorni... derdilar. Hojiakbar amaking uxlab qolsa ham qo'limga ko'tartirib, Mastura xolangni qo'shib uyimga jo'natdilar.

— Uyingga borib, ovqatlan. Qaynona-qaynotang umid bilan kelin qilgan. Ering armiyada bo'lsa, hademay keladi.

Men xomush izimga qaytardim. Qo'limda bolam, singlimning qo'lida biz uchun suzilgan, shu sochiqqa o'ralgan issiqqina osh-ovqat. Ehtimol, otajonim tush-


gan uyimga jo'natavermaganlarida, allaqachon shu uyimga qaytib kelib, o'tirib olgan bo'lardim. Chunki menga Hoji buvingning bag'ridek issiqlik, erkalgimni ko'tarishlik yo'q edi-da u uyda!.. Hoji buving esa qayta-qayta sochiqni qaytarib olib kel, sizlarni-kida yo'qolib ketmasin, deb tayinlardilar. Mening otajonim mehri qattiq, qahri qattiq bo'lib tuyulardilar. Ammo, sog'inchdan jilmaygan ko'zlariga osh to'lganini necha marta ko'rganman.

DAVLAT BOY BO'LSA, BIZ BOYMIZ

Otam o'ldi, otam-a,
Shunday saxiy odam-a!

U paytlarda ko'p qavatli uylar o'rnida keng dalalar yastanib yotardi. Bizni maktabdan o'sha dalalarga kartoshka terгани, piyoz yoki sabzilarni yig'ishtirib olgani yordamga chaqirishardi. Darsdan keyin uyga kelib, choy idishni choyga to'latib, dalaga borardik. Bir-birimiz bilan sho'xlik qilishib, aytilgan ishni bajarardik. Kech bo'lganda, o'sha choy idish ichiga o'zimga yoqqan po'sti yupqa, dum-dumaloq, tuproq isi kelib turgan kartoshkadan to'latib uyga kelganim hech esimdan chiqmaydi. Otajonim men keltirgan kartoshkani ko'rib, yana dalaga qaytarib yuborganlar.

«Bu kartoshka davlatniki. Davlat boyisa, biz boy bo'lamiz. Davlat erta sovuq tushib qolayotgani uchun



nochorlikdan sizlarni yordamga safarbar qildi. Har biringiz har kuni uyingizga shunchadan kartoshka tashib ketsangiz, davlat kambag'al bo'lib qoladi-ku! Uyimizda hozircha kartoshkamiz bor. Yurtda bo'lsa, davlatda bo'lsa, ko'nglimiz to'q bo'ladi. Shuning uchun ham beso'roq ko'chadan uyga narsa ko'tarib kelmagin».

Otajonim juda g'ururli, otajonim juda mehnatkash, otajonim juda ...

— Buvi, she'r aytyapsizmi?

— She'rni biladigan bolam-a, bolam! Otamni gapiryapman, men otalar haqida bilasan-ku, doim uzoq gapiraman.

Ota yurt deyman. Ota uyi deyman... Qiz bola palaxmon toshi. Tushgan joyini Vatan qiladi. Otalar esa o'z uyida, o'z makonida yashaydi.

— Buvi, nega Abrorning dadasi yo'q?

— Dadasi bor. Alloh ertaroq chaqirib olgan. Hammamiz ham ketamiz aslida.

— Nodirning dadasi kasal...

— Nima?

— Hadicha ammam shunaqa dedilar-ku!

— Unda men endi senga she'r aytaman. Mana bunday she'r:

— Mening dadamlar doktor,

— Mening dadam injener.

— Mening dadamlar yo'qdir,

— Oyim doim ishda der.



— Dadam uydalar, kasal...
— Dadam zavodda master,
— Mening dadamni bo'lsa
Buvim piyonista der...

— Buvi, buvijon! Zavod nima? Master-chi?

— Bo'ldi, savol bermagin. She'rimni oxiriga yetkazdirmading-a! Xullas, dadalar — uyimiz ustuni. Pano-himiz.

— Buvi, Murod buvamning dadasini aytib bering.

— Yana meni gapirtiryapsan-a! Endi jim, xayol surib ketaman degandim. Murod buvangning dada-

si—mening buvam ham qizillar, oqlar zamonida bevaqt olamdan o'tib ketgan.

—Nega bevaqt? Bevaqt nima?

—Bevaqt-vaqtida emas degani. Bolalari yosh, hammasi otam nima bersa, yeyman, onam nima desa, qilaman, deb turgan paytda birdan ketib qolganiga aytiladi.

—Nega unaqa ketib qolganlar?

—Uff... Sen bilan gaplashib, senga o'tgan zamonlarni gapirib berib, o'zim ham zerikib ketdim. Buvam rahmatli mahsi-kavush tikkanlar. Onam «eski zamonlar bo'lganda, men Moskovchi Alishoboyning qizi siz mahsido'zning o'g'liga tegmasdim», derdilar.

Otam esa, «mening dadam mahsido'z bo'lsalar ham eng tozasidan tikardilar. Amirkonidan», derdilar. Amirkoni Amerikadan keltirilgan teri, degani bo'lsa kerak... Lekin baribir besh farzandni bir o'zi kosibchilik qilib emas, uzum sotib boqarkanlar. Kuzda ishkamlar tilladek xusayni-yu hasayni uzumlardan sinib ketay derkan. Bir kuni uylariga teri chopon kiygan ikki amaki kirib kelibdi. «Bog'ingizni buzamiz. Zavodni kengaytiramiz», deyishibdi.

Buvam albatta ko'nmabdilar. Ular dag'dag'a qilishibdi.

—Yer davlatniki, sendan so'rab o'tirmaymiz.

Buvam sal bo'shashibdilar:

—Bir oy kutinglar. Hosil pishsin. Uvol-ku, — derdilar.

— Uvol-ku dedingmi? «Uvol-ku» degan soʻz — eskilik.

— Buvi, soʻzning ham eskicha, yangichasi boʻladimi?


— U zamonlarda boʻlgan ekan-da! Ertasiga buldozerlar bilan kelishib, erta bahordan parvarishlangan ishkoblarni, toklarni yerdan qoʻpora boshlashibdi. Buvam bechora bir u soʻrining tagiga, bir bu tokning panasiga yugurib, ularni toʻxtata olmabdilar. Va uch kun oʻtib oʻzlari ham yurolmay, ham gapirolmay, gung-soqov boʻlganicha oʻl-i-ib qolibdilar. Oʻshanda 1933-yil, iyun oyi ekan!

— Buvi, endi unaqa amakilar yoʻqmi? — Men uyimizda endi pishay deb turgan uzumlarni eslab, qoʻrqa-pisa soʻrayman.

— Yoʻq, albatta, yoʻq! Imonli, eʼtiqodli odamlar bor. Kambagʻalparvar, mehnatkash odamlar bor. Ammo ularning hammasi vaʼzxon boʻlib ketayotgani yoqmaydi-da!

— Vaʼzxon nima?

— Gapdon degani. Istagan gapini gapirib, quloqmiyani yeyish degani. Menga qolsa, hamma oʻz vazifasini qilsa: oʻquvchi oʻqisin, toʻquvchi toʻqisin. «Gap koʻp joyda baraka yoʻqoladi», derdilar buvim. Mana sen ham juda koʻp gapiryapsan. Hali uch yoshga ham toʻlmagan bolaga shu-u-nchaa gaplarni gapirib yurgan men — buving ham ahmoq!



—Yo‘q, buvi, buvijon! Siz aqlli! Siz hammadan chiroyli.

Buvim entikib meni o‘pib oladilar.

—Sizdan chiroy-li ko‘z-oyningiz!

—Nima?

—O‘zingiz ko‘zoynagingizni o‘ynashga bermaysiz-ku!

—Voy, esim qursin, ko‘zoynak yana uyda qolibdi.

—Tishingiz ham!

—Ha, tishim ham. Senga doim menga eslatib tur deyman-ku, shu tish bilan ko‘zoynakni!

—Tishingiz yo‘qligi bilinmaydi.

—Oldinda bor-da tishlarim. Orqadagisi esa yasa-ma. Sening dadangga, amakilaringga alishganman ularni!

—Sochingizni qorasini buvamni kutishga!

—Juda balosan-u!

—O‘zingiz doim aytasiz-ku, eshigimiz oldidagi shu o‘rik, shu o‘rindiq aytsin, ularni qanchalik kutganimni deb.

—Nima-nima? Gapimni yodlab ham olibsan-ku! Yana nimalarni yodlab olgansan?

—Buvam kech qolganda mulla buvam ularni urish-may, «yaxshi keldingmi? Oldiga tomog‘ini qo‘y», de-ganlarini.

—Yana nimani?

—Yana, siz bundan battar xafa bo‘lib, uyga yig‘lab kirib ketganingizni.

— Keyin-chi?

— Keyin, buvam «nega kulib kutib olmaysan», deb sizni quvib ketganlarini.

— Obbo, bilag'on-ey! Oyingga aytganlarimni ilib olib-san-da! Dadalarni doimo asrab-avaylash kerak. Kech kelsa ham yaxshi gapirib, kutib olish shart. Bo'lmasa, ularning jahli chiqib ketadi. Keyin uyda urush bo'ladi.

— Biznikida urush bo'lmaydi. Chunki Siz borsiz, Buvijon!

MEN BU YERDAMAN

*B*ir xola aravachasida bitta bolani yetaklab ke-lib, buvim bilan ko'rishdi.

— Yaxshimisiz? Yaxshi yuribsizmi? Bolalaringiz? Uydagi ...

— Uff, buvi, buv-i... Bo'ldi ketaylik.

Buvim meni eshitmay, endi aravachadagi xo'm-raygan bolani gapga soldilar:

— Voy-bu, bolaning chiroyliligini! Oqligi onasidan o'tibdi. Qosh-ko'zining qoraligi — otasidan.

— Ha, xudoyim chevar. Kelinim o'zi tug'masa ham, o'g'limning qonidan bo'lmasa ham o'zimizga o'xshab ketyapti deb ishonaman... Ayniqsa, siz kabi qayta-qayta o'xshatishini keltirib o'xshatishganidan keyin odam ishonib qolarkan.



— Bola tuqqannikimas, boqqanniki. Ajab emas, o'zlariga ham berib qolsa!

— Bersa, o'n ikki yildan beri berardi. O'n ikki yil-a! O'n ikki yil! Bolam ajrashmayman, deb turib oldida. Bo'lmasam...

— Unaqa demang. Xursand bo'lmaysizmi bolangiz bir ojizaning ko'ngliga qarab, umrini unga baxshida etayotganidan! Boshqa farzandlaringizning bolasi bor-ku! Ular qatorida bu ham o'saveradi-da. Ana, Rasulni qarang, Hafizning o'g'li, birinchi xotinini tug'mading deb, ikki yilda haydab yubordi. O'sha kelin boshqa uy-joy qilib, uchta farzand ko'rdi. Rasul ham uch yilda yana ikki marta uylandi. Hamon bolasiz...

U xola esa yig'lashga tushdi.

— Doktorlar bilan gaplashdim, ayb o'g'limda emas. Ikki marta kelinimni uyiga jo'natib yubordim. Uchto'rt kun jim turgan o'g'lim ichib kelib qildi to'polon, qildi janjal. Qoshiq uchib, choynak sinib, derazalar ko'zidan ajraldi. Nima qilay, o'zim yana yalinib borib olib keldim kelinimni.

— Olib kelasiz-da albatta, oldingizda mana bunday nabirani ko'rish nasib qilib turgandan keyin! Qarang buning chiroyliligini! Asalim ekan-ku, bu, shakarim ekan!

Buvim o'sha bolani ko'tarib o'ynata boshladilar.

— Buvi, buvi-i, — baqirdim men. — Men bu yerda-man.

KO'K KO'Z BOLA

— Axshi! Ko'rib turibman, shu yerdaligingni. Buvim o'sha xotinga yana gapira ketdilar.

— Abdumajid ham asolim! Novvot, qandim mening! O'zi chiroyli. Ko'zlari dum-dumaloq, sochlari qop-qora, ukasi ham bor, oti Abdulbosit.

— Ukam qora-v-o-y.

— Sen-chi, — so'raydi haligi xola.

— Men o-o-oqman!

— Albatta oq bolasan-da! Sening buving ham, oying, dadang ham op-poq! Mening nabiramning esa ko'zlari ko'k bo'lib ketyapti...


Buvim u xotinga yana ancha gaplarni gapirib qoldilar. Men esa ko'zi ko'k bolani tomosha qildim: qo'li qiltiriq, burnidan suv oqqan, og'zidan so'lagi...

Shuning uchun shildiroq so'lakchasi ho'l bo'lib qolgan. Ammo tuflichasi chiroyli ekan.

— Tufli bor-ku, nega o'zini yurgizmaysiz?

— Yurolmayapti. Oyog'ini urayaptimi bu tufli qurg'ur, bilmadim. Buni o'g'lim o'n to'rt mingga zakazga tiktirib keldi. Oyog'ining tovoni silliq ekan, katta bo'lsa armiyaga olishmasmish. Shuning oldini olishyapti. Bizning bolalar oyoq kiyimini poyma-poy kiyibmi yoki yalang-oyoq yuribmi, ko'cha changitib, tuproqlarga belanib katta bo'lishgandi. Endigilarga esa, qo'yib bersangiz, kalishini ham dazmollab kiydiradi.

— Kalishni dazmollab bo'lmaydi-ku. Erib ketadi.



— Erimaydigan qilib dazmollashadi.

— Voy xolajonisi, nabiramga aslo dazmolni gapira ko'rmang. Bu ham otasiga o'xshab injener bo'ladimi, bilmadim, hamma narsaga urinaveradi. Kecha sal qoldi tok urib olishiga, rozetkaga bit-ta vilkasi yo'q buzuq elektr choynakni tiqibdi. Birdan baqirib yuborsa, ilon, chayon chaqibdimi debman!

— Xudo mehribon, bir tarafiga kirgan ekan, sim qurg'ur!

Xola menga o'qrayib qaradi:

— Unaqa temir teshar bola bo'lmagin-da! O'zini o'tga-suvga uraverardi Hojiakbar amaking ham! Ko'z tegib ketdi bolaga!

Uf, yana Hojiakbar amakimni eslatdi-ya, bu xotin buvimga. Endi tamom, bu yerda kamida bir soat turishsa kerak.

Buvim yig'laydilar. Amakimning qilgan ishlarini eslab kuladilar. Men ko'k ko'z bolaning tovonini qanaqa ekan, deb unga uzoq tikilib o'tiraman.

Buvimning gaplarini eshitganim yo'q. Xola esa:
— Qoq tushda bir o'zi o'tirgan ekanmi? Yaxshiyam ajina-pajina urib ketmabdi-da! — degandi, jim turolmadim:

— Kimni uradi, ajina, a, buvi?

— Issiq kunda, kunduzi, uyida uxlamay suv bo'yida sang'ib yurgan bolalarni-da!

— Amakim sang'ib yurarmidilar?



— Baliq tutaman deb soatlab o'tirardi katta ariq bo'yida. Bir kuni qo'lida qarmoq, ko'zi uyquda emish... Yaxshiyam suvga sho'ng'ib ketmabdi. Bu xolang uyg'otib, uyga jo'natib yuboribdi. O'shanda o'g'lim uyga kelib, suvdan katta qora baliq chiqdimi, deb o'ylabdilar, deb sizni gapirgandi.

— Oftobda o'tiraverib qorayib ketgandi-da.

Men ko'm-ko'k ko'z bolaning tufligini ushlab ko'rmoqchi bo'ldim. U oyog'ini siltab yubordi. Yuzimga qattiq tegdi.

— Voy! Voy!

Buvim qo'rqib ketdilar. Xola ariqchadagi suvga ro'molchasini ho'llab yuzimga bosdi. Buvim unga baqirdilar.

— Balchiqli suvni yuziga tekkizmang. Otasi ariqqa tushib ketib, sariq kasal bo‘lib qolgandi. Suv iflos-ku!

— Muzdek qilsam, yuzi ko‘karmaydimi, degandim.

— Balchiqli suvda yashaydi-ku mikroblar. Oling ro‘molchangizni!...

Buvijonim ko‘ylaklari bilan mening yuzimni silab quritdilar va tez-tez velosipedimni itarib, yurib keta boshladilar:

— Mayli, xayr, ko‘p gaplashib ish orttirdik.

U xola uzoqlashgach, buvim yo‘l-yo‘lakay peshonam ko‘karib qolmasin deb silab-silab shunday dedilar:

— Hozir maqtab turuvdim-a, ko‘zim tegdi, qilgan ishini qara...

Qolgan gaplarini eshitolmadim. O‘zi shundoq ham men savol berishga chog‘lanib turgandim, ammo ko‘zlaridagi yoshni, ranglari so‘lib, xomush bo‘lib qolganlarini ko‘rib, zo‘rg‘a jim bo‘ldim. Bunaqa paytlarda jim bo‘lish kerak. Bo‘lmasa buvijonim Hojiakbar amakimni eslab battarroq yig‘lab oladilar...

NIMA KIYISHYAPTI, NIMA DEYISHYAPTI?

*B*iz o‘rikli eshik oldidan o‘tib borardik. Bir amaki buvimga gapirdi:

— Endi qayoqqa?

— U yoqqa.

— Shunaqa ekan-de? Bolangni yetaklab, kunda uch mahal kelarding. Endi nabirangni yetaklab kelayapsan. Murod akamning topganlarini bo'lib olmasdan qo'ymas ekansanlar-da.

— Bo'lmasam-chi! O'zlari zo'rlab uzatishgan. Shuning uchun gapimga kirishadi.

— Ho... Obbo sen-a! O'ziyam to'y bo'lguncha naq olti oy yig'lagan eding-a! To'y kuni ham sochingga qatiq chaplab, hammomdan chiqmay o'tirganding. O'zim derazadan tushib, eshikka quvgandim seni!

— Shuning uchun ham doim kelib-ketishimni sanab o'tirasiz-da!

Buvijonimning ovozlari jaranglab chiqardi. Kichkina qizchaga aylanib qolgandilar.

Bildimki, o'rindiqda o'tirgan amaki yaxshi odam. Buvijonimni kuldiryapti.

— Xo'sh, endi nega kelayapsan?

— Bu uydagilar nimalar qilishyapti, bilgani.


— Keyin yana kelarsan? Unda nimaga kelasan?

— Nimalar deyishyapti, bilgani.

— Ho, bahonang ko'p ekan-ku! Keyin «nima yeyishyapti, nima kiyishyapti», deb kelarkansan-de! Malades!

Buvijonim o'sha amakining oldiga meni olib borib ko'rishtirdilar.

— Katta yigit bo'lgin, — dedi amaki o'rnidan sal qimirlab.



— Sen ham qachon biznikidan olma o'g'irlab yey-
san?

— O'g'irlamaydi bu! Hojiakbar amakisiga o'xshab
olma yegisi kelsa, o'z uyida yurgandek pod-
valingizga tushib, qo'ynini to'latib chiqaveradi.

— Mayli, osh bo'lsin!

Shu payt uydan bola ko'targan xola chiqib keldi.
Buvim bilan so'rashib, menga bolasining ochilma-
gan chupa-chupsidan berdi. U bola esa bundan
yig'lamadi ham, qizg'anmadi ham. Indamay qarab
turaverdi. Men uni joni bormi, deb turtib ko'rdim.
Chunki j-i-im turaverardi-da. U yana indamadi va
buvisiga mahkamroq yopishib oldi.

Buvim endi o'sha bolani erkalata boshladilar:

— Bu bolangiz ham mo'mintoy bo'lganga o'xshaydi.
Otam rahmatli «o'g'illaringni tizzamda olib o'tirishni
istayman. Ammo uzog'i bilan ikki daqiqagina o'tiradi.
To'xtaboyning bolalari esa jimgina soatlab o'tiradi»,
derdilar. Bu bolangiz ham amakilariga tortganga
o'xshaydi. Oti nima?


— Lazizbek.

— Yur, Lazizbek. Seni Gulnoralarnikiga olib bora-
man.

Bunday qaragam, Lazizbek indamay buvimga
kelyapti. Indamasam uni ko'tarib oladilar buvim
ham.

— Yo'q, yo'q, buvi, meni ko'taring!

— Lazizbekni bola qilib oladi buving.



—Yo‘q, yo‘q, —men velosipedimdan tushib buvimning etaklaridan tortdim.

—Qo‘yib yubor buvingni. Bizning qizimizni xo‘p o‘zingizniki qilib olibsanlar-da.

OYOQSIZ ODAM

*M*en, y-o‘-o‘-q, deb qo‘lim bilan amaking oyog‘iga turtdim. Ammo qo‘limni taxtaga urib oldim. Amaki o‘rnidan surildi. Rostdan ham bitta oyog‘i yo‘q edi. Qo‘rqqanimdan ko‘zlarim ola-kula bo‘lib ketdimi, birdan amaki qattiq kulib yubordi.


—Shunaqa! Ha mashak bola, qo‘rqib ketdinga? Men oyog‘imni Vladivostokda yo‘qotib kelganman.

—Oyoq ham yo‘qolib qoladimi?

—Bo‘lmasam-chi! Issiq-sovuqqa chalinsa yo‘qolib qolarkan.

Buvim meni yana velosipedimga o‘tqazib, tezroq hayda, ketaqolaylik, deb ular bilan xayrlashdilar. Men amakiga qo‘rqa-pisa qarab keta boshladim. Bechora, bitta oyoqda uyidan bu joyga qanday qilib chiqqan ekan-a?

Buvim, bolalari ko‘tarib chiqarib qo‘yishgan, dedilar. To‘xtamurod aka armiyada dengizchi bo‘lgan ekan. Muzli dengizda yarim yil yashabdilar. Yoz va qish chillasida oyoqlari achishib og‘rib, oxiri og‘riq



bilmay qolarkan. Keyin oyog'ini kesib, mozorga ko'mib kelishibdi.

— Bitta oyoqni ham ko'mishadimi?

— Kasalxonada kesib, ko'mib kelinglar, deb bolalariga berishgan. O'sha oyoq manzil-makoniga ertaroq yetay degan-da. Hamma yerga ketadi. Mehnatdan terga ketadi...

Men ko'milgan oyoq haqida o'ylab ketayotib, ko'k ko'z bolaning yuzimga qattiq tekkan oyog'i esimga tushdi. Oyoq tepsa ham, ursa ham odamning o'zida bo'lsin.


— Oyoqsiz odam bo'lish yomon-a?

— Yomon. Lekin Alloh buyurgani bo'ladi. To'xtamurod amaki ham bolalarining davlatida o'ynab-kulib yuraman deganida, birdan bunaqa bo'lib qoldi-da. Mayli, bu olamda yashab yursalar bo'ldi...

ARI, ARI, MENDAN NARI...

Shu payt buvimning sochlariga ari kelib qo'ndi. Buvijonim bir siltab arini urib tushirdilar va oyoqlari bilan ezib o'ldirdilar.


— Buvi, arini o'ldirma, derdingiz-ku! Mulla buvam gul kesayotganlarida katta arining inini ko'rib qolibdilar. Ertalab o'sha arining inini boshqa yoqqa olib borib qo'yibdilar. Ichida jish bolalari bor ekan. O'shandan beri bobomni bitta ham ari chaqmagan ekan.



— Esingda ekan-a! Sen bilag'on bolaning miyang magnitofon. Hamma gapni yozib oladi. Rahmatli Mulla buvang hech narsaga ozor yetkazmagan. Hatto eshikdan eski-tuski so'rab kelgan lo'lilarni ham uyga olib kirib mehmon qilardilar. Bag'ri keng, yuragi katta odam edilar. Shuning uchun ham to'qson yil umr ko'rdilar-da.

— Siz nega arini o'ldirdingiz?

— Bu ari—yer ari. Unda qasdim bor. Bolaligimda sochim juda qalin edi. Uni qirqta qilib o'rdirib, uchini qora ip bilan chandib bog'lab yurardim. Bu uyda (qizil olmali uyni ko'rsatdilar buvim) Ra'no degan dugonam turardi. Onam peshinda bizni uxlatardilar. Men esa o'zlarini uxlatib, Ra'nolarnikiga sekin qochib ketardim. Shu qizil olmasining tagida koptog-u so'palak o'ynardim. «Qiz bolalar lanka tepib o'ynashi mumkinmas», deyishardi. Shuning uchun biz hamma uxlayotganida orqasiga qo'rg'oshin yopishtirilgan kichkina po'stakni tepib, bir-birimizdan o'zardik. O'sha kuni lankam devorga ilinib qoldi. Cho'p olib tushirmoqchi bo'lsam, bir teshikdan uch-to'rt ari chiqib kelayapti. Men cho'pimni o'sha teshikka tiqib aylantirdim. Shu



payt bir to‘da mayda qora arichalar mening boshimga yopirilib, sochimning ichiga kirib chaqa boshlashdi. Dod-voyimdan Ra‘noning oyisi, akalari yugurib chiqishdi. Birgalashib sochimni arilardan tozalashdi. Qaychi keltirib bir necha kokilimni kesib ham tashlashdi. Shuning uchun ham bu arida mening alamim bor.

— Buvi, sizga bir gap o‘rgatib qo‘yaymi?

— O‘rgat.

— «Ari, ari, mendan nari, ari, ari, mendan nari», deb tursangiz, arilar sizni chaqmay uchib ketishadi. Men Nafisa bilan shunday qilganman.

— Voy, seni ham ari talaganmidi?

Men boshimni yerga qaratib jim turdim. Buvijonim meni yana achomlab oldilar-da, ari, ari, mendan nari, dedilar.

BOLALARI KUYDIRGAN

— *B*uvi, qarang anuv amakini. — Men labimni burib, ko‘zimni yumib gapirdim.

— Salom ber, amakiga.

— Assalomu alaykum!

— Kim bu?

— Bu — Abduvohidingizning o‘g‘li, mulla aka. Tuzukmisiz?

— Ko‘rib turibsanku, qanaqaligimni. Yuzim qiyshayib qolgan. Bir ko‘zim ochilmaydi.

—Xudo xohlasa, yaxshi bo‘lib ketasiz. Boshingizdan ozmuncha tashvishlar o‘tdimi?! Shundoq yaxshi opoqim ko‘tarolmay o‘lib ketdilar... Siz yurganingizga shukr.

—Ha, qizim. Arslon bo‘lib yer tagida yotgandan ko‘ra, sichqon bo‘lib yer ustida yurgan yaxshiroq. Ammo ba‘zan o‘limimga rozi bo‘lib ketaman.

Buvim yuzi qiyshiq amaki bilan uzoq gaplashib qoldilar. Bunday qaragam, ko‘zlari yosh, qandaydir Xayriddin, Sayriddin degan odamlarni gapiryaptilar.

—Biz ham Alloh deganmiz. El qatori yashab o‘tdik. O‘g‘illarim esa tiriklarni o‘limga da‘vat qiladigan, faqat narigi dunyo uchun yashaydigan bo‘lishdi. Mana endi yurishgandir cho‘lda g‘isht quyib!..


Amakining bitta ko‘zidan tirqirab yosh oqardi.

—Ularning dunyoga kelganiga pushaymon bo‘lib ketaman. Qancha odamlarga zarari tegdi-ya, noinsoflarni. Buzilgan uylar tuzaldi. Nobud bo‘lganlar-chi!

Amaki yana Maysara opa haqida ham gapirib, eri yomon kuydirdi-da, dedi.

—Hammamizni kuydirdi, hammamizniki! 16 yil o‘tirdi-da qamoqda! O‘n olti yil! Qizimni chaqirib olib, bolangni oldirma, oldirsang, o‘ldiraman, deb qo‘rqitishlari-chi. Hali Buxoroga, hali Navoiyga erining ortidan qatnab, oltita bola ortirdi! Bolalari ham otasiga tortdi. Endi Sohibi kuydiryapti!

Voy, Sohib polvonni gapirishyapti ular! Qachon ko‘chamizga o‘sha kishi kelsa, hammamiz uyimizga



qochib kirib ketamiz. Ko'zi qip-qizil bu amaki bir marta meni ham boshidan balandga ko'tarib, «otib yuboraymi seni? Nega salom bermay, oldimdan qochib ketyapsan», deb qo'rqitgan.

Buvim yuzi qiyshiq amakiga yaxshi gaplar aytib, yana menga yaqinlashib, Hoji buvimlarnikiga keta boshladilar...

—Buvi, nega u kishining yuzi qiyshayib qolgan?

—Sen avval menga nega u kishini ko'rsatib, og'zingni qiyshaytirding? Shundan gapir-chi.

—Bilmadim, o'sha amakiga qarab bitta ko'zimni ham yumib oldim.

—Sen unaqa odamlar ustidan kulmagin. Buvang ham kichkinaligida senga o'xshab hunar ko'rsatganlarini aytib berardilar. Senga o'zlaridan so'ra, derdim-ku! Mayli, yana ilhomimni keltirib yubording, o'zim aytib bera qolay!

ORIF QIYSHIQQA QIYSHIQ SALOM

*M*ahallamizdagilarning hammasiga fe'li, turish-turmushi-yu ko'rinishiga qarab laqab qo'yib gapirish odat bo'lgan. Hozirgilarni bilmadim-u, avvallari turshakchinkida to'y deyilsa, hamma Kimyo opoqingning uyiga boraverardi. Chunki bu opoqini katta bobong ham turshakchining qizi, deb atardi. Ular turshak qilib sotishgan ekan. Ahmed zabon, Ergash so'lim, Ortiq

kepaklarning laqablari sabab, bola-chaqalarini ham aytaylik, kepaklar, so'limlar, deb taniymiz. Maktabga ketadigan uzun yo'lning ikki chetida qator tol daraxtlari ekilgandi. Buvang Azim garang hassasini do'qilatib choyxonaga ketayotganida tol ortidan chiqib, qo'lini ko'ksiga qo'yarkan-da, yomon so'zlar bilan so'karkan. Qulog'i og'ir chol esa, vaalaykum assalom, ko'p yasha, der ekan. O'rtoqlarining qiqir-qiqir kulgularidan shodlanib, buvang yana boshqa tolning orqasidan chiqib, yana haligi so'zni aytarkan. Chol esa bunga e'tiborsiz, mullo bo'lg'in, vaalaykum assalom, deb javob qaytararkan. Shunday qilib, bu o'yin uzoq davom etibdi. Boshqa bolalar ham buvangga qo'shilib, Orif qiyshiqqa labini burib salom beraveribdi. Karim oqsoqqa cho'loqlanib kelib salom berisharkan. Bir kuni Azim garang sezgir emasmi, o'zini masxara qilishayotganini bilib qolib, bolalarning oyog'iga tarsillatib hassasi bilan urib ketibdi. Shunday qilib, buvang va uning shumtaka o'rtoqlari uzoq vaqtgacha oqsoqlanib yurishibdi.

O'LGANLAR KELIB QILADIMI?

— *B*uvi. Endi men ham hech kimni masxara qilmayman. Kecha mast amakini pashsha talab yotgandi. Uni cho'p bilan turtib uyg'otdik. O'sha amaki o'rnidan turib, Abrorni quvlayman, deb yiqilib tushdi.

— Amaki bo'lmay o'lsin, o'sha Tilabolgan! Ismini qara, Tilabolgan! Urushdan yarimta bo'lib qaytib kelgan Salim chittakning tilab olgan bolasi u. Ota sho'rlik o'g'liga insof tilay-tilay, o'tib ketdi. Onasi esa haliyam yaxshi gapirib, odam bo'lib qolar, deb duo qilib o'tiradi. Boshqa iloji ham yo'q. Kichik o'g'li o'lib qolgan.

— Nega o'lib qolgan?

— Bilmadim. Shu sirligicha qolib ketdi. O'quvchilik paytimda Hoji buving uzumlar gulini to'kdi, bog'ni xomtok qilinglar, derdilar. Men tok tarashni juda yomon ko'raman. Ishimdan zerikib, shu Tilabolganlarning bog'iga o'tdim. Sojida opoqim ham tok tarayotgan ekanlar. Ularga salom berib, siz ham tok tarayapsizmi, dedim.

— Men taramasam, o'lganlar kelib taraydimi?

Seskanib ketdim. Hammayoqni, tok novdasi chirmab ketgan ishkorni o'liklar bosib ketgandek bo'ldi.

Hoji buving meni chaqirib:

— Bugun ham shu ishingni paysalga solyapsanmi? Tez-tez harakat qilib, loaqal bir tupini tarab qo'y, hozir kech bo'ladi!

Men yana o'z bog'imga kirib, ish bilan mashg'ul bo'ldim. Qancha payt o'tdi, bilmayman, Sojida opoqining, voy bola-a-am, degan dod-voyidan qo'rqib ketdim. Hamma do'pir-do'pir qilib ularnikiga chopib qoldi. Eshik oldida «Tez yordam» mashinasi turardi. Hov-

liga esa Sanjar o'g'illarini olib kirib, yotqizib qo'yishgandi.

«Sojida xola o'liklarni nega tilga oldilar-a», dedim ichimda. Ertalab ishlagani ketgan o'g'illarining o'ligi kirib keldi-ya eshikdan! Shuning uchun faqat yaxshi gaplarni gapirish kerak.

— Yaxshi gap qanaqa bo'ladi, buvijon!


— Yaxshi gap birovning dilini og'ritmaydigan, ko'nglini ko'tarib, o'zini ham ko'tarib yuboradigan bo'ladi. Mana, masalan, amakingning o'rtog'i Tojivoy. Burnida katta qizil xoli bor. Bu xol burnini yanayam katta qilib ko'rsatadi. Bolalar Tojivoy — bo'jivoy, deb masxara qilishardi. Oyisi doim yetaklab yurib o'stirdi. Hatto ishga ham olib borib, ishonasining yonidagi maktabda o'qitdi. Mahalla bolalari uni masxara qilishlariga qarab turmadi. Endi Tojivoy chindan ham Hoji bo'lgan: ota-onasi-yu buvilarini ham Hajga olib bordi. O'zi tarjimon. Bir oy uyda bo'lsa, ikki oy chet elda bo'ladi.

— Buvi, nimaydi, sada-ray-hon-hon...

— Voy bilag'on-ey! Amakingga o'ylab gapir, chiroyli gapir, deb urishib aytib berganim, esingda ekan-da.

— Yana aytib bering.

— Aytmay nima qilyapman, sen bilan gaplashib, almisoqdagi gaplarni eslab, qara, qancha yo'l bosib qo'yibman...



SADARAYHONINGIZ...

*B*ir podshoh ovqatlanib o'tirganida soqoliga guruch yopishib qolibdi. Yonidagilarning haddi sig'ib aytishi qiyin bo'libdi. Bir sodda odam oxiri chidab turolmabdi-da:

«Podshohim, soqolingizga guruch yopishib qolibdi», — debdi o'rnidan turib. Bu gapdan podshoh o'ziga hamma qaraganini ko'rib, darg'azab bo'libdi-da:

— Jallod! — debdi.

Davrada bir so'zamol, xushchaqchaq inson ham bor ekan. Tezda qo'l ko'tarib:

— Podshohim, bir qoshiq qonimdan keching... — debdi.

— Nima deysan?

— Sadarayhoningizga bulbul qo'nibdi, ruxsat bersangiz, tutib olsam.

— Ruxsat! — debdi shoh va kulib:

— Mana bunday aytsa ham bo'larkan-ku! — deb jallodlarni ham kuldirib, ortiga qaytarib yuboribdi.

Shunaqa, gap toshdan og'ir, pardan yengil. Chiroyli so'zlab, chiroyli ishlarga amal qilib yurganlar uzoq va qoqilmay yashaydilar. Olamni bunyod qiluvchi ham, barbod qiluvchi ham — so'zdir.



PODSHOH SINOVI

- *B*uvi, hov buvi-i-i!
- Nima deysan?
- Endi molboqar qilganini ayting.
- Ha-ya, buyam esingda ekan-da. Mening esimdan chiqib qolgandi. O'zing aytib ber.
- Bir podshoh bor ekan. Uning vaziri yo'q ekan. Yana molboqari ham.
- Molboqar nima, buvi?
- Mollarni, sigir-buzoqlarni parvarish qiladiganlar. Ulardan doim molxonaning hidi kelib turadi. Shuning uchun ham Hoji buving sigir sog'ishga kirganlarida, ro'mollaridan tortib oyoq kiyimlarigacha hammasini o'zgartirib olardilar.
- Xo'sh, innay keyin-chi?
- Buvim menga kulib qaraydilar. Men «innay keyin», deb yana molboqarga qaytaman.
- Podshohning molboqari ham yo'q ekan. Buvi, u yog'ini o'zingiz aytib bering. Siz chiroyli qilib aytasiz.
- O'zing ham yaxshi aytyapsan-ku. Birpas gapirmay, men ham seni eshitib boray.
- Mayli-i-i...Men jim ketaman.
- Buvim, aytyapsanmi, deyaverganlaridan keyin ko'zim baland so'ridagi pishay deb turgan uzumlarga tushadi-da: «Buvi, tuzukmisiz?», — deyman.
- Tuzukman.

—Uzum yeysizmi?

—Rahmat, ertalab uyg'onishimga olib kelib, tuzukmisiz, deb berding-ku! Onang juda aqlli-da! Senga bu so'zni Elmira o'rgatdi-a?

—Ha, har kuni buvijoningni o'pib, «Tuzukmisiz», deb uyg'otgin. Yuzingni yuvib, ovozingni baland qilib «Assalomu alaykum!» degin, dey dilar.

—Baraka topsin. Yaxshi gaplar o'rganish kerak. Yomon gaplarni gapirma.

—Xo'p.

—Xo'p deysan-u, uyat gaplar ham og'zingdan chiqadigan bo'lib qoldi.

—Bor, yo'qol, deganimmi?


Men darrov yuzimni burib oldim.

—Bolalar bilan o'ynayotganimda bitta amaki meni achomlab, seni kim tuqqan, dedi. Men: onam, desam, he, o'sha..., deb so'kdi. Keyin menga ham shunaqa so'kishni o'rgatdi. Men hamma bolalarni shunaqa so'z bilan so'ksam, ular kulishdi. O'shanga siz ham kulasiz, deb o'ylabman.

—Endi og'zingga unafa so'zlarni olma. Qani, borib bir chayib tashla-chi derdim-ku, bu yerda suv yo'q ekan. Hali Hoji buvingnikiga borganda og'zingni yuvib olish esingdan chiqmasin.

—Xo'-o'p.

Biz yana jim keta boshladik. Birdan bitta uyda buzoqning mo'ragani eshitildi-yu, esimga o'sha podshoh tushdi.



— Buvi, nega so‘ramayapsiz?

— Nimani?

— Podshohni.

— Ha-ya, keyin nima bo‘libdi?

— Podshoh bitta kishini vazir qilaman, deb yurgan ekan. Uni sinash uchun mehmon qilibdi.

— Dalada.

— Ha, katta dalada. Ular yo‘lda ketishayotgan ekan. U kishi xursand bo‘lib, podshoh bergan ovqatlarni apil-tapil yeb olibdi. Buni ko‘rgan shoh uni darrov molboqar qilib qo‘yibdi.

— Nimaga?

— Nimaga bo‘lardi? U qo‘lini yuvmay, atrofni chiroyli qilmay, molga o‘xshab ovqatlangan ekan-da! Molboqarni esa vazir qilibdi.

— Nimaga?


— Nimaga bo‘lardi? Molboqar ham podshohga mehmon bo‘lib, avval «Rahmat», debdi. Keyin yuz-qo‘lini yuvib, dasturxon tuzab, ovqatga qo‘l cho‘zibdi. Qovunlarni kesib, pomidorlarni to‘g‘rab, bitta-bittalab odamga o‘xshab og‘ziga solibdi.

— Odamga o‘xshab degin? Men bunaqa demagandim-ku!

— Dadam deganlar. «Doim odamga o‘xshab uxla, odamga o‘xshab gapir»...

— Ha, odamcha, nimalar deb chuldirayapsan?

Shu payt Abrorning oyisi orqamdan kelib, bur-nimni chimchilab oldi. Men uni «mashak», dedim.



— O‘zing mashak.

— Sariq mashak.

— Sariq mashak...

Buvim yelkamni ushlab opoqiga qaratdi.

— Nega o‘zingdan kattani sensirayapsan? Sizlab gapir. Qani, kechiring, deginchi! Men darrov kechiring, dedim. Opoqim esa burnimni yana chimchilab oldi-da, sen sariq mashaksan, dedi va buvimga:

— Biz o‘zi shunaqa o‘ynaymiz. To‘g‘rimi, Abdumajid, — deb menga qaradi.


— To‘g‘ri.

Buvim yana opoqi bilan gaplashib bo‘lgunlaricha, men sizlarga nega Sariq mashak ekanligimni aytib beraman.

SARIQ MASHAK

«**S**en oppoqqinasan-ku, nega opoqing seni sariq mashak dedi», dersiz?

Ha, opoqimni sariq desa bo‘ladi. Ko‘zi ham ko‘k. Sochlari bir kun sariq, ikki kun qora. «Odamlarning rangini bir paytlar sochiga qarab bilardik. Endi, bo‘yoq bor, ishonch ham qolmadi. Lekin, ko‘zlar aldamaydi. Ko‘zlarni bo‘yab bo‘lmaydi», deydi buvimlar. Oyim esa, «qayoqda, endi ko‘zlarga ham o‘zlariga yoqqan rangni qo‘yib o‘zgartirib olishyapti», deb javob qaytaradilar.



— Yaratuvchi Alloh. Allohdan keyin ham yaratuvchilik qilaman deganlarning oxiri voy!

Buvim hamon jim ketyaptilar. Men zerikdim.

— Buvi, so‘rang...

— Nimani?

— Opoqimni.

— Ha-ya, opoqingni sen sariq mashak dedingmi? O‘zi qayoqdan lug‘atingga bu so‘z kirib qoldi?

— Amakim o‘rgatdilar. Agar yong‘oqning tagida uxlab qolsam yoki bitta o‘zim tush paytida uxlamay ko‘chalarda yursam, sariq mashak ajina chalib ketarkan. O‘shanda men o‘sha ajina kimga o‘xshaydi, deb so‘rasam, ajinaning sochi sariq, tirnog‘i qizil, dedilar. Opoqim ham biz bilan birga o‘tirgandi. Birdan: «Opoqimning sochiga o‘xshaganmi?», dedim. Opoqim: «Endi men ajina bo‘ldimmi senga?» deb oyog‘imni uzun tirnoqlari bilan chimchilab oldilar.

— Ha, — dedim. — Tirnog‘ingiz ham qip-qizil...

Shu kuni amakim meni berkitib olmaganlarida, opoqim rostdan ham meni battar qiynab qo‘yardi...

— Opoqing seni yaxshi ko‘radi-ku. Abrorni ham adasi, ham onasi bo‘lib o‘stiryapti. Opoqing sabab, hamma bolalari tarbiyali.

— Qayoqda! Abror ajinadan qo‘rqadi-ku!

— Qanaqa ajinadan?

— Sochlari har xil rangga bo‘yalgan ajinadan.

— Onasidan-mi?



Men indamay turaverdim. Buvim o'zlari aytgan gapni albatta esladilar.

—Ha, senga, mulla buvang nokning tagida sochini tarab o'tirgan ikkita ajinani ko'rganlarini aytuvdim. O'shani eslatyapsanmi?

—Yana aytib bering.

—Bunaqa bahor kunlarida unaqa gaplarni aytish uncha qiziqarlimas. Senga quyoshli jazirama kunlarda aytib beraman. Hademay hamma uzumlarni pishitadigan, qovun-tarvuzlarga maza kiritadigan oftob qizdiradi. O'shanda yana yangilarini aytaman.

Buvim yana yangilarini aytgunlaricha, men sizga eskilarini aytib beraman. Buvimdan eshitganlarimni Abrorga aytib berib eskitgandim-da. Sizga esa eskimas, yap-yangi...

SIZ-CHI, QO'RQASIZMI?

«*B*ir bola uzun yo'ldan bir o'zi o't yulib, velosipediga ortib kelayotgan ekan. Oldidan tobut chiqib qolibdi». Abrorga shuni aytsam, indamay qarab turaverdi.

—Oppoq tobut emish...

U yana ji-im turdi.

—Ichida sham yonib turganmish.

—Nima bo'пти? Va-a, shunga ham qo'rqamanmi?

Men rosa qo'rqqandim. Nimagaligini bilmadim-u, hamma uyning chirog'ini yoqib qo'ying, deb har kuni kechasi oyim bilan dadamni tindirmagandim. Sizchi? Siz qo'rqasizmi?

UCHAR ILON

O'sha bola qo'lga cho'p olib, yo'lini ochib o'tib ketibdi. «Qo'rqmayman, qo'rqmayman, men zo'-o'-r-man», deb gapirib ketayotsa, shundoq yonida



velosipedi bilan barobar bitta ilon uchi-ib ketayotganmish.

— Nima-a? Ilon ham ucharkanmi?

— Ucharkan.

— Bundan o'sha bolaning o'zi ham «uchib» qolibdimi?

Abror yana meni masxara qilib kulib yubordi. Men esa uni yana qo'rqita olmadim. Siz-chi? Siz qo'rqasizmi?

TO'YGA MARHAMAT

O'sha bola yana o'sha yo'lda bir o'zi ketayotsa, bitta hovlida to'y bo'layotganmish. Bu yo'lda uylar yo'q edi-ku! Ikki taraf yong'oqzor. Uning orqasida piyoz va pomidor ekilgan keng dala. Bola hayron bo'lib qarab tursa, chiroyli kiyingan odamlar unga, «uyga kiring, to'yga kiring», deb turganmish.


— Kiribdimi? — Abror mendan hovliqib so'raydi.

— Rosa nisholdaga to'ygandir? Men nisholdani yaxshi ko'raman.

— Men ham.

— Yaqinda ro'za bo'ladi. Har kuni iftorlikka nisholda yeymiz.

Men Abrorni qo'rqitaman desam, u nisholda yeymiz deb o'tiribdi. Siz-chi? Sizga qiziqarlirmi



mening aytayotganlarim? «Ha» desangiz, ayta-man...

Shu payt Abror meni turtib qoldi.

— Aytmay-sanmi to'yda nima bo'lganini?

— Nima bo'lardi? Bola to'yga kiribdi. Oldiga shirin kulchalar qo'yishibdi. Konfet, tortlar rosa ko'p emish. Negadir hamma chiroyli kiyinganlar uni o'rab olib, «Bir so'zni ayt-may, oling bulardan», deb turishganmish. Nima so'z ham aytardi bu bola? Albatta «Bismilloh», deydi-da!

— Debdimi? — So'raydi ko'zini katta ochib Abror.

— Debdi. Keyin o'zidan ketib qolibdi. Uni uyi-dagilar zo'rg'a qidirib topishibdi. Tezak, go'ng-larni quchoqlab, o'sha jinko'chadagi jin topmas o'rada yotgan emish. Keyin oyoq-qo'li ishlamay qolibdi.

— Bor-ey! Shuyam gap bo'ldi-yu!

— Gap bo'ldi! Rosa ko'p gap bo'ldi. Buvim shun-day dedilar.

— Bu bilan nima demoqchisan?

— Bolalar sa-al qo'rqoqroq bo'lishi kerak. Bitta o'zi yurmasin. Har xil joylarga boravermasin.

— Ajab bo'пти. Sen shunaqa bo'la qol! — Abror burilib uyi tomon keta boshlaydi.

— Xuddi shunaqa bo'laman. Sendaqamas. Sen-ku tomingni yoqib yuborgan...

Abror: «Jim bo'li!» — deb og'zimni yopdi.

NINA SO'RAB KELGAN QIZ


Men sizlarga Abrorning qanday qilib gugurt topib olgani, uni tomga hashak tashlagani chiqqanida cho'ntagidan olib yoqqanini, keyin o'zi ham olov ichida qolib ketib, zo'rg'a pastga tushib olganini aytmayman. Aytsam, akalari bilib qolib, Abrorni sog' qo'yishmaydi. O't o'chiruvchilarga ham tomni Abror yoqmadi, deyishdi. Hammomning issig'idan olov chiqib ketdi, deb yozdirishdi.

Men sizlarga buvim uxlata turib: «Ko'chalarda bir o'zing yurmagin, tag'in ajina, jinlarga uchramagin», degan gaplarini aytib beraman. «Ajina chalib ket-sa, tushingda ham o'rningdan turib, hamma yoqlarda tentirab yuraverasan».

Yarim kechasi buvimning eshigi taqillabdi. Buvijonim o'shanda Abrordek endi maktabga chiqqan ekanlar. Uyg'onib ketibdilar. «Ishqilib tinchlik bo'lsinda. Qarindoshlarimiz sog'-salomatmikan?» deb qo'rqib turishganmish uydagilar.

— Kimsan? — deb yo'talib qayta-qayta yana, — Kim? Kimsan? — deb borib eshikni ochishibdi. Bemahalda birov chaqirsa: «Ha, labbay, menman, demagin. Ajinalar og'zingni qiyshaytirib ketishadi. Sen: — kimdi? — deya chiqqin», — deb aytgandilar.

— Ninamiz sinib qoldi, nina berarkansiz, — deb turganmish eshik oldida Zamira degan qiz.





— Yarim kechasi nınada nima tikasan? — deb so‘rashsa, indamasmish.

— Xo‘p, xo‘p, hozir beraman, — deb ichkaridan nina olib chiqishibdi-da, Zamirani uyiga olib borishibdi. Hamma uxlab yotganmish. Zamira esa hech narsa bilan ishi yo‘q, issiqqina o‘rniga kirib, yana pishillab uyqusini davom ettiraveribdi.

TEGMAGANGA TEGMAGIN

Buvim bilan yana yo‘lga tushdik. Velosipedimni haydab oldinga o‘tib ketdim. Uzoq ketib qolibman, buvim «shoshilmay yur, mashina kelib qoladi», deb chaqirdilar. Men yana shu tezlikda orqaga, buvimning yoniga boraman debman-u, rulimni temir darvozali uyga burib yuboribman. Shu payt darvoza tagidan kichkina sariq kuchukcha chiqib oyog‘imga yopishdi. Yaxshiyam og‘ir tufli kiyganim. Uni ayamay bi-ir tepdim. Darvozadan akillab kirib ketdi-yu, uydan bir kennoyi chiqib:

— Qopib oldimi? Qani oyog'ingni ko'rsat-chi? — dedi.

— Yo'q, qopmadi.

— Qopibdi-ku. Paypog'ingga tishining izi tushib qolibdi.

Buvimning vahimasidan kennoyi tez uyiga kirib ketdi-da, kattakon kir sovun olib chiqib oyog'imga surtib qo'yib dedi:

— O'zing ham tegmaganga tegmagin-da.

AMAKIMNING GRAFI

*B*iz yana yo'lga tushdik. Buvim:

— Kuchuklardan qo'rqmaydigan dadangga o'xshab-san-da, — deb gapirib ketdilar.

— Dadang ham bah-bah, deb birovlarining kuchugini chaqirib olib, boshini silaydi. Bir kuni uyimizga dum-dumaloq kuchuk bolasini tutib keldi.


— Ko'chada adashib qolgan ekan, boqaylik oyi, — deb yalindi.

— Mayli, — dedim.

Hojiakbar amaking bundan juda sevinib ketdi va bizga hali bu kuchuk juda kichik ekanini, osh emas, sut ichirish kerakligini aytdi. Biz gapiga ishonmadik. Chunki kuchuk katta ko'rinardi-da.

— Katta emas, zoti shunaqa.

Birpasda chug'urlashib unga nom tanlay ketishdi.



— Sharik, yo‘q shariklar kichkina bo‘ladi. Sharga o‘xshagan dumaloq bo‘lgani bilan, u yaqinda o‘rib, kattakon bo‘lib ketadi.

— Tarzan.

— Yo‘q. Tarzan degan Otabekning laycha kuchugi bor. GRAF qo‘yamiz, — dedi amaking nihoyat.

Graf. ... Bilmadim, bu nomni qayoqdan o‘ylab topdi, lekin Graf keyinchalik o‘z salobati-yu, xatti-harakatlari bilan graflarga o‘xshab ketdi.


— Buvi, Graf qani?

— O‘ldi. Amaking olamdan o‘tgan kunlarda yo‘qolib qoldi. Qidirsak, yerto‘laga tushib yotgan ekan. Ozib-to‘zib ketibdi. Hech narsa yemaydi, qancha urinmaylik, baribir og‘ziga hech nima solmadi. Yota-yota bir kuni yo‘qolib qoldi. Shu ketgancha boshqa ko‘rmadik.

— Balki amakimning oldiga borib olgandir?

— Shunaqa deb o‘yladik. Bir kuni o‘g‘limning qabri boshiga borsak, it izlari turardi. O‘sha Grafning izlari bo‘lsa kerak, deb yig‘ladik. Yaxshi it o‘ligini egasiga ko‘rsatmas ekan.

O‘ziyam aqlli edi-da. O‘g‘lim stolda ovqat yesa, kallasini stolga yetkazib, odamlardek yonida tik o‘tirardi. Juda mehr qo‘ygandi unga Hojiakbar amaking ham. Cho‘miltirib, yunqlarini tarardi. Vajohatidan hamma uyimizga o‘ylab kirardi. Shuning uchun men uni yoqtirmasdim. «Yo‘qot», derdim. Bir kuni rostdan ham yo‘qolib qol-



di. Ikki kecha-kunduz qidirib, ikki-uch mahalladagi kuchuklarni tekshirib chiqdi-yov, amaking. Niho-yat, aziz odamini topgandek quvonib, Graf bilan kirib keldi.

—Kuchuk so'yib sotadigan Qora Hasannikidan topdim. Endi so'yaman, deb pichog'ini charxlab, kuchugimni shoxga ilib turgan ekan.

—Bo'lmagan gapni gapirma...

—Nega bo'lmagan ekan? Rostdan ham o'sha Hasan kuchuklarni tutib, so'yib sotadi. Grafimizni narigi mahalladagi Ahmaddan besh yuz so'mga sotib olibdi. «Meni kechir», deb rosa yalindi. Yaxshiyam, vaqtida boribman.

—Yur, yur, — derdi ukasi, sening dadang Abduvohid unga. — Borib Ahmadni urib kelamiz.

—Nima qilasan, urish ko'tarib? Graf tirik qolgani-ga shukr qilsang-chi.

—Buvi, — so'rayman men. — Amakim shukr qilsang-chi, dedilarmi?

—Ha.

—Shukr. Shukr amakimmi?

Men Abrorning amakisini so'radim.

—Uning oti Abdushukur. Allohning ming bir nomlaridan biri bu. Shukr esa, Allohga rahmat, degani.

Men buvimning hamma gaplarini eshitmay, Ho-jiakbar amakim haqida o'ylab ketdim. Qaniydi, mening itim ham odamlardek yonimda o'-o'tirsa...



—Hoy, oyog'ingning ostiga qara. Non ushog'ini bosib o'tib ketayapsan-ku.

Buvingning gapidan sergaklanib, yerga qaradim. Rostdan ham velosipedimning old g'ildiragi pecheniyni uvalatib, ustidan yurib o'tib ketgandi. Buvim darrov uni olib, ariqqa tashlab yubordilar. Keyin: «senga o'xshagan beparvo bir bola yerga tashlab ketgandir-da, — dedilar. — Non aziz bolam, non — aziz».

Buvingning bir dugonasi bir boyga kelin bo'lib tushgan ekan. Yeyar-ichari joyida bo'lsayam, qotgan nonni oqizoq qilib yegan ariqchasini sog'inarkan. Boynikidan yashirinib, boshiga eski bir nimchani yopinib kelib, ariqchada qotgan non oqizarkan-da, uni ko'zlariga surtib yeb, nonga endi to'ydim, deb shukr qilib ketarkan...


—Bu ariqchaga tushib ketgan narsani yana qayta toza suvda chayib olish kerak. Ha mayli, bu suv oqib-oqib soyga, soydan daryolarga borib qolar. Baliqchalar yer, o'sha pecheniyni.

—Buvi, nega nonni bosib bo'lmaydi? Aytmadingiz-ku.

—Bilasan-ku, non rizq-ro'zimiz. Non bo'lmasa yashab bo'larkanmi? Uni aziz qilishimiz kerak. Aziz qilmasak...

Buving negadir yana jim bo'lib qoldilar. Men ham ji-i-im turdim-da, baribir chiday olmadim.

—Buvi, hoy buvi, aytmaysizmi?



- Nimani?
- Nonni aziz qilmasak, nima bo'lishini.
- Uf-f. Sen gapdon bolaga tinmay gapirib ketishim kerak ekan-da.

NEGA YER QIMIRLADI?

*B*olaligim Toshkentning Qashqar mahallasida o'tgan. Bu yerda o'zbek, o'ris, yevrey, uyg'urlar yashardi. Bir kuni otam hojatga kirib, titrab-qaqshab chiqdilar.

— Endi ko'chamiz bu yerdan. Endi boshqa bir kun ham turolmayman. Hatto hojatxonaga ham non to'kib ketishibdi-ya!.. Bu kirdi-chiqdilarlarga chiday olmayman. Pichoq borib suyakka taqaldi.

Onam: «Hoy, dadasi, o'zingizni bosing, bu yerga ancha o'rganib qoldik. O'zim ozodagarchiligiga qarab yuribman. Insof kirib qolar bu yerdagilarga», — deb ancha gapirdilar. Bir-ikki biznikiga kirib-chiqadigan qo'shnilarnikiga ham kirib-chiqib «nonni baland joyga qo'yinglar, isrof qilmanglar, uvoliga qolasizlar», deb gapirib ham chiqdilar. Lekin, baribir, otam o'z so'zidan qaytmadi. Vaqti kelib, kichik hovlimizni sotib, Bodomzorga ko'chib ketdik. Yer qimirlaganda 7-sinfda o'qirdim. Otam peshonasiga urib:



— Ana, aytmadimmi, zilzila markazi aynan Qashqar mahallasi ekan-ku, — derdilar. — Hatto hojatxonasigacha non ushoqlari kirgan yerda yer qimir-laydi-da...

RAMAZONCHI BOLA


*B*izning oldimizdan eshigini ochib ramazonchi bola chiqib qoldi. Uni har kuni iftorlik qilib o'tirganimizda kelishini bilardik. Oyim unga tanga pullar yig'ib qo'ysa, buvim shirin kulchaga qo'shib, yong'oq, mayiz, har xil shokoladlarni beramiz, deb turardilar.

— Bizning zamonlarda ramazonchi bolalarga pul berilmasdi. Ramazonchilar ro'zani uch kun tutib, «ro'zaning zakotini bering», deb keyin kelishardi. Bir kuni Toshopa degan yoshi o'tgan qiz ramazon aytib kelgan. Otam: «Toshoy, senga kuyov topdim. Mana, yonimda o'tiribdi», deganlar va Normuhammad amakini ko'rsatganlar. Normuhammad amaki ham devorda ilinib turgan rubobni olib Toshopaga qo'shilib ramazon qo'shig'ini aytgan. Senlar esa boshqacha aytyapsanlar. Dardi-fikring pul topish.

Opchiqing, opchiqing,
Tog'oraga sopchiqing.

Tog'oraga sig'masa,

Tog'orachaga sopchiqing, deganlariga o'laymi...



QAHRAMON AKADAN MING SO‘M

Men ramazonchi boladan o‘rganib olganlarimni kun bo‘yi uyimizga kelganlarga aytib, ko‘-o‘-p pul ishladim. Samiraning tog‘asi kelib qolsa, menga maz-z-a-a bo‘lardi.

— Bo‘ldi, Qahramon, endi bunaqa pul bera-verma, — derdilar buvim.

Qahramon esa kulib:

— Nabirangizning o‘zini qarang, o‘zini, — deb menga yana aytirardi. Men esa mazza qilib baribir aytardim:

— O‘choqda kul,
Karmonda pul.
Chiqara qoling,
Ming so‘m pul!

— Uff... Ana qarang, men yuz so‘m pul ushlab turuvdim. Yana ming so‘m pul, dedi. Ming so‘m degandan keyin ming so‘m beraman-da.

Men ming so‘mni olib cho‘ntagimga solaman. Keyin Qahramon akaning yonida turgan Sherzod tog‘amga qarab aytaman:

— Ramazon aytib keldik eshigingizga,
Qo‘chqordek o‘g‘il bersin beshigingizga ...

— Bo‘ldi, bo‘ldi, — deydi Sherzod tog‘am. — O‘g‘illar ko‘payib ketdi. Endi bizga qiz bersin, degin.

Men hayron bo‘lib, qanaqa qilib qiz bersin deb aytaman, deb o‘ylab qolaman. Ramazonchi bola

o'rgatgan qo'shiqda qiz bola bersin degan gap yo'q-ku.

Ular:

— Ana bo'ldi! Endi bor, uyingga kir, — deyishadi...

Ramazonchi bolani ko'rganim yaxshi bo'ldi. Men undan so'rab olaman, deb shoshilaman. Ammo u bola gapimni eshitmay boshqa uyga kirib ketdi. Buvim esa meni «to'g'ri yo'ldan yur», deb to'xtatib qoladilar. Bo'lmasam, uning ortidan o'sha uyga birga kirib ketardim. Ro'za kuni shu bolaning orqasidan yonimizdagi qo'shnilar nikiga bir necha marta kirib, chiqqanman. Farruh akam, Norposhsha opoqim, Shahlo kennoyim ramazonchi boladan ko'prog'ini, pullar, konfetlar, olma-uzumlarni menga berishgan. Baribir eshikdan chiqqanimizdan so'ng ularning hammasini ramazonchi bolaga berganman. Shunda u: «Har kuni mening ovozimni eshitsang, uyingdan ruxsat olib chiqqin. Birga aytamiz, qarindoshlaring yaxshi ekan», — degan.

QARINDOSHLAR

Rostdan ham bu ko'chadagilarning hammasi qarindoshlarimiz. Katta bobom yetti aka-uka bo'lishgan. Abdug'affor buva, Abduqodir buva, Abdurazzoq buva, Abdurashid buva, Abdurahim buva. Endi ularning bolalari-yu nabiralari yashaydi bu

ko'chada. Shuning uchun hech kim birov-birovdan uyalib o'tirmaydi. Hamma aytadigan gapini aytadi, aytmaganidan qaytadi.

— Ramazonchi bola ham qarindoshimiz-a, buvi?

— Qaysi bola?

— Hozir bu uydan chiqib, anavi uyga kirib ketgan bola.

— Ha, rahmatli Mansur qudabuvamizning nabirasi u.

— O'shaning uchun ramazonda yiqqan pullarimni unga bergandim.

— Obbo sen-ey! Bu bola ham buvasiga o'xshab pishiq ekan-da. Sening pullaringni indamay oldimi?

— O'zi ber, dedi-ku!

— Ha, mayli, bergan bo'lsang, beribsan. Ketgan narsaga achinma.

— Buvi, nega Mansur buvani pishiq dedingiz?

— Buvangning sayroqi bedanasini o'ziniki qilib olgan ekan. «Bering» — deb borsa, uyidagi ko'p bedanalarini ko'rsatib: «Bu bedanalar ham seniki. Men esa ularni boqib berayapman, bolam», deb xursand qilib chiqarib yuborgan ekan...

QURBONLIKKA QO'Y

— *B*uvi, endi qachon ramazon aytaman?

— Ikki Hayit orasi 70 kun. O'n besh kundan keyin Qurbon hayiti keladi. Yana yil o'tib ramazon. Aytgancha, qurbonlikka qo'y olishimiz kerak.

Shoxdor qo'y olamizmi?

— Ha, shoxdor, sog'lom qora qo'chqor...

— Hojiakbar amaking qurbonlikka olib kelingan qo'yni qanday tutib kelganini aytib beraymi?

— Aytib bering.


O'shanda o'zi boqqan qo'ylarni so'ydirmagandi. So'ysangiz, qanday yeysiz go'shtini, deb hamma-mizning rahmimizni keltirgandi. Keyin boshqa qo'y olib keldik. Uning oyoqlarini yechib, mashinadan yerga qo'yishimiz bilan bir silkindi-yu, shataloq otib qochib ketdi. Mahalla bolalari uni quvib ketishdi. Bir soat o'tdi, ikki soat, uch soat... Amakingdan ham, qo'ydan ham darak yo'q. Nihoyat yarim kechasi yelkasiga qo'yni qo'yib kirib keldi u. Oyoqlari shilingan, ust-boshi loy. O'zi terlab-pishib ketgandi.

«Yaxshiyamki dalada kartoshkaga suv qo'yishgan ekan. Loyga botib qoldi. Zo'rg'a tutdim», — deb shahar chekkasini aytdi o'g'ilginam.

Buvim ko'zlariga yosh olmoqchi edilar, birdan o'zlarining gaplari esimga tushib qoldi:

— Buvi, bozorga borsangiz, mevaning tozasini olaman, deysiz-ku. Xudo ham shunday-da! Odamlarning yaxshisini oladi.

Buvim kulib yubordilar. Ularga qo'shilib men ham kuldim. Keyin tez-tez velosipedimni haydab oldinga o'tib ketdim. Chunki Hoji buvimning uyi ko'rinib turardi-da.



BIZNING KO'CHAGA RAHMAT

Bir zumda darvozasining oldida ayvonchasi bor uyning yoniga yetib keldim. Qo'ng'iroqqa bo'yim yetmaydi, shuning uchun velosipedimni jingirlatdim. Eshikni ochishmadi.

Velosipedimni choptirib haydab, temir darvozaga urildim. Yana eshik ochilmadi. Endi yerga tushib qo'lim bilan temir darvozani gursillatib urmoqchi bo'lganimda, Hoji buvimning: «kim», degan ovozi eshitildi.

- Qizillar, — dedim.
- Qizillar yo'qolib ketgan-ku!
- Unda bosmachilar!
- Bosmachilar qoptimi endi?
- O'zimiznikilar.
- O'zimiznikilar bo'lsa, ochaman!

Hoji buvijon sharaqlatib temir darvozaning ikki tabaqasini ochib yubordilar. Men yana velosipedim bilan to'ppa-to'g'ri katta hovliga kirib bordim-da, yerga tushib ularni achomlashga oshiqdim. Birdan buvimning: «Hoji buving qattiqqo'l», — degan gaplari esimga tushdi-yu, boshimni silab turgan qo'llarini ushlab, dedim:

- Qo'llaringiz yumshoq ekan-ku!
- Endi yumshab qoldi-da, bolam.
- Ikki, tog'alaring-u Gulchehra, Gulnora nabiralarim qo'limni sovuq suvga urdirmagach, yumshab qoladi-da.


—Bir paytlar qattiq bo'lgandi, deng oyi,— deb kulib buvijonim kirib keldilar. Keyin Hoji buvimning yumshoq yuzlaridan o'pib, meni ham quchoqlab oldilar. Ikkala buvimning shirin hidlari menga yoqib ketdi-da, velosipedimning orqasida turgan anor esimga tushdi. Anorlarni olib buvimga bermoqchi bo'ldim. Ammo sochiq bog'lanmagan ekan, qip-qizil anorlar hovlining har tarafiga dumalab ketdi. Men ham buvijonlarim bilan anor terishga tushib ketdim. Shu payt anorlarning bitasi oyog'imga urilib, darvozadan tashqariga chiqib ketsa bo'ladimi? Kelgan tarafimga chopdim. Ortimdan ikkala buvim quvib kelishdi.

—Chiqma ko'chaga! Mashina kelib qoladi.

—Qayoqda mashina?

Men bobojonim o'tiradigan tosh o'rindiqqa chiqib olmoqchi edim. To'g'ri, ularni ko'rmaganman. Lekin, buvim Shavkat tog'angga o'xshardi, deganlari uchun chollarni ko'rsam, Shavkat tog'amga o'xshaydimi, deb qarayman. «Faqat tog'angga oq soqol qo'ysak bo'ldi-da! Bobongning o'zi bo'ladi-qoladi», deb aytgandilar buvim. Bobom shu yerda uzoq o'tirar ekanlar. O'rindiqni ham shu tog'am yasab berganlar. Uning ustida doimo yumshoq ko'rpacha solingan bo'ladi.

Ko'chadan o'tganlar, «hormang Murod buva», deb so'rashar, devorlarga chirmashib ketgan so'ridagi uzumlar haqida uzoq gaplashishar ekan. «Uzum eyman desang, novdasini uzun kes! Shunda yana hosili ko'payadi» yoki «Sigirga odamdek gapir, seni tu-




shunmasa, mana, men kafil. Bizning sigir mo‘-o‘lab, uydagilarga o‘zining borligini bildiradi. Ayniqsa, mening ovozimni uzoqdan ham ajratadi. Men kelishim bilan boshqacha tipirlab qoladi shekilli, uydagilar ham uning tertiga qarab, somonini ivitib harakatga tushib qolishadi» der ekanlar.

Bu gaplarni buvijonimdan eshitganman. Yana kattaligi kallamdek novvotrang atirgulni ham bobom parvarishlaganini aytganlar.

Navoiy zamonida atirgul soyasida namoz o‘qisharkan. Demak, atirgullar daraxtdek bo‘lib o‘sib ketarkan-da!

MUROD MORYAK


Shu payt ko‘zim darvozaga ilingan taxtakachga tushdi. Unda «Bu yerda urush qatnashchisi yashaydi», deb yozib qo‘yilganini tog‘amning o‘g‘li Bekzod akam menga o‘qib berganlar. Ha, bobom urushga borganlar. Ergash akalari yo‘qolib ketib, Turob akalari qo‘ltiqtayozda uyga kirib kelganlarida chiday olmabdilar. Hamro buvimiz, senlarni otasiz o‘stirdim, sen bormay qo‘ya qol, desalar ham, baribir yoshlarini katta qildirib yozdirib, urushga ketgan ekanlar. O‘rmonda o‘qlar vizillab uchganida, «voy, oyi», «voy-dod, aka», deb yig‘lab to‘rt tarafga chopib yuribdilar. Shu payt bir tanishlari nuqul qo‘lini dush-



man o'qiga to'g'rilmish. Maqsadi yengil yaralanib, gospitalga tushib olish ekan-da! Bobom bu voqeadan juda xafa bo'libdilar va qo'rquvni unutib botir bo'lib ketibdilar. Nima maqsadda urushga kelganlarini o'ylab, chinakam jangchiga aylanibdilar. Keyin ularni razvedkachi qilib qo'yishibdi. Qonga to'lib oqqan daryodan suzib o'tib, dushmanlarni qiyratganlari uchun o'rtoqlari Murod moryak , deydigan bo'libdi. Hozirgacha buvimni mahallamizdagi katta odamlar «Moryakning qizi», - deyishadi. Bobom bir kuni yana dushmanlar haqida xabar topib kelaman, deb borsalar, samolyot boshlaridan o'q yog'dirib o'tibdi. Ko'zlarini ochsalar, siniq taxtalar orasida, bir uyning yerto'lasida yotganmishlar. Suv ichgilari kelibdi. Turaman, desalar oyoqlari ishlamasmish, sudralib borib qor yalabdilar. Stol ustida yarimta non turgan ekan, qo'llarini cho'zib nonni olibdilar. Dushman tovushlarini bemalol eshitib, uch kun o'sha nonni yeb, qor yalab yashabdilar. Keyin o'zimiznikilar kelib, binoni dushmandan tozalabdi. Bobomni gospitalga olib ketishibdi.

— Nimalarni o'ylab, nimalarni so'ylab qolding, Abdumajid? Kel, uyga kirmay shu yerda bir oz gaplashib o'tiraqolaylik!

Hoji buvijonimning gaplari menga juda yoqib ketdi. Shuning uchun anorlarimni ko'tarib, darrov ularning oldiga yetib keldim. Shu tomi bor darvoza oldiga yetguncha menga har xil voqealar-u hiko-



yalar hadya etgan shu ko'cha undan ham yaxshiroq va yaqinroq ko'rinib ketdi.

Chunki Hoji buvim bizlar bilan bobomning o'rindiqlariga joylashib olib, qo'llarini keng ochib: «o'tirgan o'rnimiz yo'qolmasin, Abdumajid ham katta yigit bo'lsin», dedilar-da:

— Bolalari ham,

Pullari ham

Ko'paysin!

— Bizlarniki ham! — Biz bobojonimning gaplarini barcha takrorladik va uzoqdan buvilarim qarshisiga kulib kelayotgan bir amaki bilan ko'rishishga chog'lana-yotganlarini ko'rib, men sizlarga keyinroq o'sha amaki haqida gapirib beraman, deb birinchi kitobimni tugatdim.

Qalay, o'qishda zerikmadingizmi? Buni men aytdim, buvim yozib berdi. Yozishni o'rganib olgunimcha Sizing yozganlaringizni menga o'qib ham beradigan shu buvijonim! Ammo ukam Abdulbosit qalamlarini tortib oladi, yozgan qog'ozlarini g'ijimlab og'ziga soladi. Men uni urishsam, yig'lashga tushadigan ham shu Abdulbosit. Oyim «sendan buvingni qizg'anyapti. Buvingni ukangga ham berib tur», dedilar. Shunaqa paytlarda men ham zerikib qolmasligim uchun tezroq menga xat yozing. Chunki gap tamom-vassalom deyishga hech shoshilmay turibman. Endi sizlardan ham eshit-ay-da-a!


















MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Tavbaga o'xshagan so'z..... | 3 |
| Qattiqqol kim?..... | 5 |
| Buvimning hamma gapı to'g'ri..... | 7 |
| Men jo'xori yemayman | 9 |
| Poyma-poy tufli | 11 |
| Uyimiz ketib qolyapti..... | 15 |
| Gilam nega ikki xil..... | 18 |
| Rais o'zi kim? | 20 |
| Bola mushuk — ola mishuk..... | 21 |
| Jannatdan chiqqan tayoq..... | 23 |
| Muzqaymoqmi, issiq qaymoq?..... | 25 |
| Nafisa nega maktabdan qochdi | 26 |
| Qurutni quritmang | 27 |
| Muzaffarning o'g'li | 29 |
| Katta ariqdagi uy..... | 30 |
| Mangalka nima?..... | 32 |
| Darbadar Muzaffar | 34 |
| Sariq buzoqning filga aylangani haqida | 35 |
| Bu kimning puli? | 40 |
| Buvim xavotirga tushgan kun | 41 |
| Men qayoqdan kelgandim? | 44 |
| Sen samolyot haydagin, bolam..... | 46 |
| Bir xumcha oltin | 50 |
| Birovning haqi..... | 52 |
| Qizil rang | 54 |
| Yetti ho'kizning puli | 56 |



| | |
|---|-----|
| Makkatillo fuqarosi..... | 58 |
| Amal—amallab tur degani..... | 61 |
| Sochig..... | 64 |
| Davlat boy bo'lsa, biz boymiz... .. | 67 |
| Men bu yerdaman | 73 |
| Ko'k ko'z bola..... | 75 |
| Nima kiyishyapti, nima deyishyapti? | 78 |
| Oyoqsiz odam | 84 |
| Ari, ari, mendan nari..... | 82 |
| Bolalari kuydirgan | 84 |
| Orif qiyshiqqa qiyshiq salom..... | 86 |
| O'lganlar kelib qiladimi? | 87 |
| Sadarayhoningiz | 90 |
| Podshoh sinovi..... | 92 |
| Sariq mashak | 95 |
| Siz-chi, qo'rqasizmi? | 97 |
| Uchar ilon..... | 98 |
| To'yga marhamat | 99 |
| Nina so'rab kelgan qiz..... | 101 |
| Tegmaganga tegmagin | 102 |
| Amakimning Grafi | 103 |
| Nega yer qimirladi? | 108 |
| Ramazonchi bola | 109 |
| Qahramon akadan ming so'm | 110 |
| Qarindoshlar | 111 |
| Qurbonlikka qo'y..... | 112 |
| Bizning ko'chaga rahmat | 114 |
| Murod moryak..... | 116 |



Umida Abduazimova
A-13 Yozilmagan kitob/ U. Abduazimova. - T.: «O'zbekiston» NMIU,
2008. -128 b.

BBK 83.8(50')

ISBN 978-9943-01-208-0

Umida Abduazimova

YOZILMAGAN KITOB

Muharrir B. XUDOYOROVA
Rassomlar N. MIRZAEVA, A. FOZILOV
Badiiy muharrir O. FOZILOV
Texnik muharrir T. XARITONOVA
Musahhih Sh. ORIPOVA
Kompyuterda tayyorlovchi B. DO'SMATOVA

Bosishga ruxsat etildi 19.05.2008. Bichimi 84x108 $\frac{1}{16}$.
Pragmatika garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli b.t. 13,44. Nashr t. 17,25. Tiraji 3000 nusxa.
Buyurtma № 08-37.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.